

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ prof. B. Eshov

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019 y.

**OLIMOV SARBOZ ABDISHUKUR O'G'LI** ning  
*5111600–Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi bo'yicha*  
*bakalavr darajasini olish uchun*

**MAVZU: O'ZBEKISTONDA JAMOATCHILIK BOSHQARUV TIZIMINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**  
**mavzusida yozgan**

## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Talaba \_\_\_\_\_ S.Olimov

Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_ prof. O. Ergashev

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019 yil

“Himoyaga tavsiya etildi”

Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari kafedrası

mudiri \_\_\_\_\_ dots. F. Qanoatova

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019 yil

## MUNDARIJA

**KIRISH.....3-6 bet**

**I BOB. O'zbekistonda jamoatchilik boshqaruv tizimining shakllanishi va takomillashtirish asoslari. .**

1.1. Jamoatchilik boshqaruv tushunchasi va uning shakllanishi jarayonlari.....7-16 bet

1.2. O'zbekistonda demokratik islohotlarning takomillashib borish jarayonida jamoatchilik boshqaruvining huquqiy asoslarini rivojlanishi.....17-27 bet

**II BOB. Mamlakatimizda jamoatchilik boshqaruv – nazorati tizimi va uni amalga oshirish yo'llari.**

2.1. Nodavlat-notijorat tashkilotlarining jamoat boshqaruvi va nazoratidagi o'rni.....28-39 bet

2.2. Mahalla – jamoatchilik boshqaruv tizimining asosiy bo'g'ini sifatida.....40-53 bet

2.3. Ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik boshqaruvidagi vazifalari.....54-66 bet

**Xulosa.....67-72 bet**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....73-76 bet**

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi:** Jamoatchilik boshqaruv tizimi va nazorat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan muammolar doimo jamiyatshunos olimlarning izlanish ob'ekti bo'lib kelgan. Ammo boshqaruv va nazorat faoliyati asosan yuqoridan amalga oshiriladigan davlat nazorati nuqtai nazaridan o'rganilgan. Bugungi kunga kelib nazorat faoliyatini faqat yuqoridan bo'lgan davlat nazorati sifatida emas, balki tizimli xarakterda bo'lgan davlat va jamiyat nazorati sifatida o'rganish boshlandi.

Mustaqillik ilk yillarida sobiq totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik, rejali-taqsimot tizimi va unga mos bo'lgan hokimiyat va boshqaruv tizimini tugatish asosida markaziy va oliy davlat hokimiyati organlarining ayrim vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari - mahallalarga bosqichma-bosqich o'tkazib borish natijasida davlatning jamiyatni boshqarishdagi roli jiddiy ravishda qisqarishi hamda fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki yanada kengayishi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining o'rnatilishini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarmasdan turib, jamiyatni demokratik yangilash va isloh etish, mamlakatni modernizatsiya qilishni tasavvur etib bo'lmasligini har tomonlama o'rganish eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi.

Jamiyat va davlat boshqaruvi tizimini yanada demokratlashtirish va liberallashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish sohasidagi ishlarning samaradorligi ko'p jihatdan "Kuchli davlatdan-kuchli fuqarolik jamiyati sari" konsepsiyasini ro'yobga chiqarishning muhim omili bo'lgan fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirok etish darajasiga bog'liq. Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki ularning ijtimoiy institutlarga ixtiyoriy xohish-irodasini erkin namoyish etish yo'li bilan konstitutsiya va qonunlar doirasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M. Mirziyoyev Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida "Kuchli davlatdan - kuchli

fuqarolik jamiyati sari” degan muhim tamoyilni amalda joriy etish masalalariga to‘xtalib, quyidagilarni alohida ta’kidlab: “Bugungi kunda jamoatchilik boshqaruv tizimini takomillashtirish eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda”<sup>1</sup> – degan edi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 – fevral 2017 – yilda “2017 -2021 yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida jamoatchilik boshqaruvi va nazorati mexanizmlarini amalda tadbiq etish , fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish borasida ishlarni yanada takomillashtirish nazarda tutilgani ham ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligini tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari:** Bitiruv malakaviy ishining maqsadi –davlat hokimiyati va boshqaruv tizimi faoliyati ustidan samarali jamoatchilik boshqaruvini o‘rnatish va jamoatchilik boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid normativ – huquqiy hujjatlarni o‘rganib chiqishdan iborat. Ushbu maqsad quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oldi:

- Jamoatchilik boshqaruvi va shaklanishi jarayonini o‘rganish;
- Ijtimoiy boshqaruvni amalga oshirishda jamoat tashkilotlari institutlarining o‘rni va rolini ko‘rsatish
- davlat hokimiyati ustidan ijtimoiy nazoratni amalga oshirishda jamoat tashkilotlari institutlarining o‘rni va rolini ko‘rsatish
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish;
- fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;
- mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o‘rni va faoliyati samaradorligini oshirish;
- NNTlarining jamiyat boshqaruvidagi rolini kuchaytirish va ularning huquqiy jihatdan himoya qilish;

---

<sup>1</sup> SH.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon , demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – T., O‘zbekiston. 2016- yil. 56 bet.

- ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti:** O'zbekistonda jamoatchilik boshqaruv tizimi va uni takomillashtirishning zamonaviy va samarali mexanizmlari.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti:** Jamoatchilik boshqaruvi tizimining yangi mexanizmlarini joriy qilishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, jamoatchilik boshqaruvida mahalla instituti va nodavlat – notijorat tashkilotlarining rolini yanada oshirish, ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik boshqaruvidagi vazifalarini aniqlash, o'rganish va belgilashdan iborat.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi:** Insoniyat jamiyatini paydo bo'lishi va faoliyat olib borishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan boshqaruv tizimini samarali ishlashini ta'minlaydigan mexanizmni shakllantirish va takomillashtirish masalasi barcha vaqtlarda insoniyatni ilg'or qismini o'ylantirib kelgan dolzarb muammo bo'lib hisoblanadi. XXI asr birinchi 10 yilligidan boshlab jamoatchilik boshqaruvi va nazorati masalalariga bag'ishlangan bo'lgan qiziqish ortib, ilmiy tadqiqot ishlari ko'paya boshladi. Respublikamizdagi bir qator jamiyatshunos olimlar jamoatchilik boshqaruvi va nazorati tizimini o'rganishga bog'liq ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Mustaqillik yillarida respublikamiz olimlari tomonidan ham fuqarolik jamiyatining asosiy instituti bo'lgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish, ya'ni mahallalarning siyosiy va huquqiy maqomi bo'yicha anchagina ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi va mavzuga oid kitoblar chop etildi. Xususan, respublikamiz olimlaridan D. Axmedov, Z. G'ofurov, SH. Jalilov, R. Raxmonov, N. Abdullayev, M. G'ulomov, M. Qirg'izboyev<sup>2</sup>kabi olimlar tomonidan masalaning siyosiy va huquqiy jixatlari taxlil qilingan, SamDU professori F. X. Nabiyeu, akademik A. Saidov, professor

---

<sup>2</sup>Qirg'izboyev M. O'zini-o'zi boshqarish organlari – fuqarolik jamiyatining asosi. Demokratlashtirish va inson huquqlari, 2003, №1; G'ulomov M. Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi. – T.: «Adolat», 2003; Raxmonov R., Abdullayev N. Mahalla: o'z-o'zini boshqarishning huquqiy kafolati. – T.: Mehnat, 1999. –72 b; Jalilov SH. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari: Tajriba, tahlil, amaliyot. T.: «O'zbekiston», 2001; Axmedov D., G'ofurov Z. Mahalla noyob milliy qadriyat. – T.: O'zbekiston, 2005. - 112 b.

O. Ergashev, J. Boysunov<sup>3</sup> va boshqalar ushbu mavzu yuzasidan ilmiy maqolalarni chop ettirgan.

**Mavzuning ilmiy yangiligi va ahamiyati:**2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident farmoyishi<sup>4</sup>,"Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da<sup>5</sup>, "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturlarining birinchi yo'nalishida jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakl va usullarini rivojlantirish, xalq bilan muloqotning samarali mexanizmini joriy etish maqsadlari nazarda tutilishi ham ushbu bitiruv malakaviy ishining yangiligidan dalolat beradi. Xususan<sup>6</sup>, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Fuqarolarda ham islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi shakllanishi kerak. Ana shundagina ko'zlagan maqsadlarga erishib, oldimizga qo'yilgan vazifalarning to'liq uddasidan chiqamiz. Bu jarayonda kuchli va ta'sirchan jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining o'rni beqiyosdir" degan fikrlari mazmun- mohiyati jihatidan ham ushbu bitiruv malakaviy ishining asosini tashkil etadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida keltirilgan ma'lumotlardan umumta'lim maktablarida, akademik litseylarda, oliy ta'lim muassasalaridagi ilmiy – tadqiqot ishlarida, seminar va dars mashg'ulotlarida manba sifatida foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi:** Kirish, 2 ta bob, 5 ta paragraf, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi bundan tashqari xulosa va ilmiy ishni yoritishda foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro'yxatidan iborat

---

<sup>3</sup>F.X.Nabiyev. Ijtimoiy nazorat.O'quv qo'llanma. 2013- yil

A.Saidov. Davlat va huquq nazariyasi. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. 2016-yil

J.Boysunov. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodologik jurnal. 2018-yil. 2-son.

<sup>4</sup>"Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident farmoyishi. Toshkentsh.2016-yil 17-dekabr,F-4760-son. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 8-son, 119-modda)

## **I BOB. O'zbekistonda jamoatchilik boshqaruv tizimining shakllanishi va takomillashtirish asoslari. .**

### **1.1. Jamoatchilik boshqaruv tushunchasi va uning shakllanishi jarayonlari.**

Jamoatchilik boshqaruvi demokratiya va xalq hokimiyatchiligining muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u davlat organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish orqali fuqarolarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini muhofazasini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonda jamoatchilik tashkilotlari asosiy rol o'ynaydi. Jamoatchilik tashkilotlariga nodavlat – notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, turli kasaba uyushmalari, mahalla va hokazolarni kiritishimiz mumkin. Jamoatchilik boshqaruvi fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza etilishini hamda qonun hujjatlari talablariga davlat organlari hamda ularning mansabdor shaxslari tomonidan og'ishmay rioya qilinishini, ular oldida turgan vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Shu bois kuchli fuqarolik jamiyati shakllantirilayotgan yurtimizda jamoatchilik boshqaruv tizimini takomillashtirish, uni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich o'tkazilmoqda.

Ijtimoiy boshqaruvning rivojlanishi tarixi va san'atining qanday va qachon vujudga kelganini hech kim aniq ayta olmasa kerak. Ammo qayerda odamlar jamoa yoki guruh bo'lib yashasalar, boshqaruvga ehtiyoj tug'ilgan. Chunki o'sha davrlarda boshqaruv turli ko'rinishlarda uchragan.

Birinchi, odamlar guruh bo'lib har xil jamiyatda yashaganlarida albatta, guruhda o'ziga xos tartib o'rnatishgan va guruh a'zolarini shu tartibga bo'ysunishga chaqirishgan. Bu holatdan boshqaruvning ijtimoiy ko'rinishini ko'rishimiz mumkin.

Ikkinchi, odamlar o'sha guruhlarda mehnat taqsimlashgan. Bu holatdan boshqaruvning iqtisodiy ko'rinishini ko'rishimiz mumkin.

Uchinchi, odamlar guruhlarda yashaganlarida o'zlarini dushmanlardan, yovvoyi hayvonlardan himoya qilishi kerak bo'lgan. Bu holatda boshqaruvning mudofaa holatini ko'rishimiz mumkin.

Yillar va zamonlar o'tgani sayin dunyo bo'yicha ijtimoiy boshqaruv amaliyotida juda ham ko'p tarixiy shaxslar tomonidan ulkan ishlar amalga oshirilgan va bir necha boshqaruv inqiloblari yuzaga kelgan. Jamoatchilik boshqaruvining dastlabki kurtaklari sifatida demokratik qarashlarni keltirsak bo'ladi. Jamoatchilik boshqaruvi tushunchasi dastlab demokratik qarashlarning vatani bo'lmish Qadimgi Rim va Yunonistonda yuzaga kelgan. Chunki demokratiyaning asosini ham xalq, jamoatchilik boshqaruvi tashkil etadi. "Demokratiya" so'zi grekcha so'z bo'lib "xalq hokimiyati" degan ma'noni anglatadi. Shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, demokratiyaning asosiy belgisi alohida olingan u yoki bu mamlakatda xalqni oliy hokimiyatning manbai ekanligini amalda e'tirof etishdir. Ayni paytda, turli xalqlar demokratiyaning shakli va mazmunini turli davrlarda turlicha talqin etishgan. Demokratiyaning antik davrdagi talqini bilan hozirgi zamon talqini aynan bir xil emas. G'arb olimlarining ta'kidlashicha, hozirgi vaqtga qadar demokratiya to'g'risidagi to'plangan ta'rif va tasniflar soni qariyb 550 tadan ortiqdir.<sup>7</sup> R. Dal e'tirof qilganidek, "demokratiyaning tabiati ikki yarim ming yildan beri har tomonlama muhokama qilib kelinmoqda, bir qarashda ushbu muddat barchani qoniqtiradigan demokratiya g'oyalari yig'indisini ishlab chiqish uchun bimalol yetarlidек tuyuladi. Lekin bu amalga oshmadi. Yigirma besh asr davomida demokratiya g'oyalari ilgari surildi, himoya qilindi, tanqid qilindi, yo'q qilindi, keyin yana tiklandi, ammo ushbu hodisaning mohiyatini tashkil qiluvchi fundamental masalalar bo'yicha yagona to'xtamga kelingani yo'q".<sup>8</sup>

Demokratiya to'g'risidagi ta'riflarning barchasida demokratiyaning atributlari turlicha talqin qilingan. Lekin masalaning eng muhim tomoni shundaki, shu paytga qadar, jahon ilmiy fikriga demokratiyani jamiyatda joriy qilishning barcha uchun umumiy bo'lgan qoidasini yaratdik, deb hech kim da'vo qilgani yo'q. Chunki demokratiyaning mohiyatini tashkil qiluvchi umumiy belgilari va mezonlari bo'lgani holda, har bir jamiyat masalaga o'ziga xos imkoniyatlar va ularning

---

<sup>7</sup> Даймонд Л. Прошла ли "Третья волна демократизации?" // Полис. 1999. г.

<sup>8</sup> Дал Р. О. Демократии. –М.: Аспект пресс, 2000 г.



xususiyatlaridan kelib chiqibgina yondosha oladi. Demokratlashuv jarayonining nihoyatda murakkabligi, uni amalga oshirish ko‘lamining kengligini nazarga oladigan bo‘lsak, bugungi kunda demokratiyani faqatgina siyosiy hokimiyatni amalga oshirish usuli sifatida qabul qilsak va shu eskirgan yondashuvdan kelib chiqib jamiyatda demokratiyani joriy qilishni tasavvur qilsak, albatta katta xatoga yo‘l qo‘yamiz. Chunki, bunda demokratiyaga o‘ta bir tomonlama yondashgan bo‘lamiz. Insoniyat to‘plagan tajribalardan ma‘lumki, bunday usulda hali biror bir jamiyat demokratiyaga to‘liq o‘tolmagan. Demokratik jamiyat deb oliy hokimiyat bevosita xalqqa tegishli bo‘lgan va xalqning xohish-irodasi bilan amalga oshadigan davlat va jamiyatga aytiladi. Albatta, “demokratiya” atamasining qanday sharhlanishi emas, balki uning qanchalik realligi, haqiqiyliги, yashashga qobilligi muhimdir. “Binobarin, - deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov - biz o‘z istagimizdagi demokratiyaga qanday mazmun baxsh etmaylik, agar u hayotimizning har bir soniyasiga singib ketmasa, turmushimizning ajralmas qismiga aylanmasa, hamma shiorlar va ta’riflar yo mazmunsiz baqir-chaqir yoki hech narsani anglatmaydigan so‘z o‘yini bo‘lib qolaveradi.”<sup>9</sup> Demokratiyaning vazifasi - fuqarolarning huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan jamiyatni qurishdan iborat. Lekin hozirgacha hech qaysi davlat bunga mukammal erishmagan, faqat unga harakat qilib kelmoqda. Demokratik boshqaruv jarayonida siyosiy hayotda ishtirok etish nafaqat fuqarolarning muhim belgisi bo‘libgina qolmasdan, bu ularning huquqlari, balki burchlari ekanligini ham anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatlarni ham hisobga olish muhimdir. Ana shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak demokratiyaning asosini jamoatchilik boshqaruvi tashkil etadi. Jamoatchilik boshqaruvining yana bir ko‘rinishi sifatida jamoatchilik nazoratini ham aytishimiz mumkin.

Jamoatchilik nazorati jamoatchilik boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismi ham hisoblanadi. Hayotimizda nazoratning juda ko‘p turlari uchraydi. Bular

---

<sup>9</sup>Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. –T.: «O‘zbekiston», 1998, 180-bet.

prokuror nazorati, ma'muriy va moliyaviy nazorat, bojxona, soliq nazorati va hokazo. Savol tug'iladi, jamoatchilik nazoratining bulardan nima farqi bor?

Jamoatchilik nazoratining boshqa nazorat turlaridan asosiy farqi shundaki, jamoatchilik nazoratining obykti – davlat organlari faoliyatidir. Jamoatchilik nazorati deganda bu davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda nodavlat tashkilotlar faoliyati ustidan fuqarolar, ularning birlashmalari va o'zini-o'zi boshqarish organlari, fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari (institutlari), shuningdek, davlat va nodavlat organlari tarkibida tuzilgan jamoatchilik organlari tomonidan qonun doirasida olib boriladigan nazorat tushuniladi. O'zbekistonda davlat mustaqilligi qo'lga kiritilgandan so'ng, mamlakatda demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish oliy maqsad qilib qo'yildi. Huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri esa, jamiyat va davlat hayotida qonun ustuvorligining so'zsiz tan olinishi, jamiyat a'zolari o'rtasida yuzaga keladigan barcha munosabatlarda qonunga itoat va hurmat ruhining mavjudligidir. Shu sababdan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasi 2-qismida "Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar", deb qat'iy belgilab qo'yilgan. Shunday ekan, jamoatchilik nazorati institutining qonun hujjatlari orqali mustahkamlab qo'yilishi har jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy qomusimizning qator moddalarida jamoatchilik nazoratining umumiy asoslarini belgilovchi normalar mavjudki, mazkur institutni tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari belgilangan konstitutsiyaviy norma asosida va uning doirasida qabul qilinadi. Jumladan, Konstitutsiyaning 2-moddasida "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar", 7-moddada esa, "Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan

idoralar tomonidagina amalga oshiriladi”, deb belgilangan<sup>10</sup>. Jamoatchilik nazorati instituti konstitutsiyaviy normalardan tashqari boshqa qonun hujjatlari bilan ham tartibga solingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi qonunining 2-moddasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirishning asosiy prinsiplari keltirilgan bo‘lib, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini har tomonlama mustahkamlash va davlat hokimiyati markaziy organlarining vakolatlarini joylardagi boshqaruv organlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish, ijro etuvchi hokimiyat organlari, shu jumladan, mudofaa va xavfsizlikni ta‘minlovchi tuzilmalar faoliyati ustidan jamoat nazorati mexanizmini shakllantirish va kuchaytirish” uning beshinchi tamoyili sifatida qayd etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonunining 15-moddasida jamoat birlashmalari davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda qatnashish, davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining qarorlarini tayyorlashda ishtirok etish, davlat va jamoat idoralarida o‘z a‘zolari (qatnashchilari) nomidan ish yuritadi va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqlariga egaligi qayd etilgan. Yana shuni aytish lozimki, har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan amnistiya hujjati qabul qilinar ekan, unda doimo “Senatning tegishli qo‘mita va komissiyalari ushbu amnistiya akti qo‘llanilishi tartib-taomillarida jamoatchilik nazorati va ochiq-oshkoralik amalga oshirilishida deputatlar korpusining bevosita ishtirokini ta‘minlasin” mazmunidagi band mavjud bo‘ladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi MJtK, JK, JPK, FPK va boshqa qator qonun hujjatlarida ham jamoatchilik nazorati yoki jamoatchilikning ishtiroki shaklida keltirilgan normalar mavjud. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi JKning 6-moddasida jinoyat qonunchiligining demokratizm prinsipi aks etgan bo‘lib, unda jamoat birlashmalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari yoki jamoalar jinoyat sodir etgan shaxslar axloqini tuzatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb

---

<sup>10</sup>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2018 – yil.

qilinishi mumkinligi belgilangan. O'zbekiston Respublikasi JPKning 19, 21, 25, 40-44, 80, 322, 326, 349, 459, 524, 531, 536, 539, 543, 545, 580-moddalarida jinoyat protsessida jamoatchilikning ishtiroki va o'rnini belgilab qo'yilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi JPKda jamoatchilik nazorati hamda jinoyat protsessida jamoat birlashmalari va jamoalarning ishtiroki to'g'risida quyidagi normalar aks etgan:

– shartli hukm qilish to'g'risida jamoat birlashmasi yoki jamoaning iltimosnomasi bo'lsa, sud shartli hukm qilingan shaxsning xulq-atvorini kuzatish uchun uni shu birlashma yoki jamoaga topshirishi mumkin (459-modda);

– muayyan huquqdan mahrum etish tarzidagi jazodan ozod qilish jamoat birlashmasi, jamoa iltimosnomasiga binoan sudya tomonidan amalga oshiriladi (536-modda);

– jarima solinishi va axloq tuzatish ishlarini jazoning boshqa turi bilan almashtirish Jinoyat kodeksining 44- va 46-moddalariga muvofiq sudya tomonidan jazoni ijro etuvchi organlar taqdimnomasi bilan yoki jamoat birlashmasi yoxud jamoaning iltimosnomasi bo'yicha amalga oshiriladi (539-modda);

– axloq tuzatish ishlari o'talغان vaqtni mahkumning umumiy mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi masala sudya tomonidan ko'rib chiqilayotgan paytda iltimosnoma kim haqida berilgan bo'lsa, shu shaxsning, shuningdek, iltimos qo'zg'atgan jamoat birlashmasi yoki jamoaning vakili qatnashishi shart (545-modda);

– manfaatdor fuqarolarning, shuningdek, jamoat birlashmalari va jamoalarning iltimosnomasi tibbiy yo'sindagi majburlov choralari bекor qilish yoki o'zgartirish va ish yuritishni umumiy tartibda tiklash to'g'risidagi masalalarni sudda ko'rib chiqishga sabab bo'ladi (580-modda).

O'tgan yillar davomida jamoatchilik nazoratini tashkiliy –huquqiy jihatdan tartibga solish bo'yicha juda ko'plab ishlar amalga oshirildi. Xususan, 2018 yil 13 - aprelda kuchga kirgan “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi qonun<sup>11</sup>

---

<sup>11</sup>O'zbekiston Respublikasining Qonuni Jamoatchilik nazorati to'g'risida .Xalq so'zi. 13 Aprel 2018

jamoatchilik nazorati bilan bog'liq bo'lgan juda ko'plab jihatlar to'liq ochib berildi. Qonunning maqsadi davlat organlari va muassasalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Jamoatchilik nazorati odatda professional, tizimli, maxsus malaka talab qiladigan, ixtisoslashgan nazorat hisoblanmaydi. Mazkur nazorat ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Jamoatchilik nazorati boshqa nazorat turlaridan o'zining subyektlari bilan farqlanadi. Boshqa nazorat turlarida davlat organi mansabdor shaxs bo'lib, maxsus ma'lumotga ega shaxslar muayyan tartibga solingan tartib-taomillarga rioya qilgan holda nazoratni o'tkazadi hamda bu nazoratni o'tkazish majburiy. Jamoatchilik nazoratida esa fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari qatnashishlari mumkin. Ular ixtiyoriy ravishda, ochiq, oshkora jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Yana bir holatni ko'zdan qochirmasligimiz lozimki, ayrimlar "Fuqaro sifatida qonun menga imkon berdi, endi bemalol xohlagan davlat organini borib nazorat qilaman", degan tushunchaga bormasligi lozim. Qonunning 5-moddasida belgilangan asosiy prinsiplarda bunday holatlarning oldini olish uchun nazorat qonun hujjatlari talablariga rioya qilgan holda, ommaviy va ochiq, xolis va beg'araz, davlat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatiga asossiz aralashuvga va ularga g'ayriqonuniy ta'sir ko'rsatishiga yo'l qo'ymasdan o'tkazilishi zarurligi belgilab qo'yildi. Ushbu talablarga rioya qilmaslik jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish, deb hisoblanishi mumkin.

Mazkur nazorat o'z natijalari bilan boshqa nazorat turlaridan farqlanadi. Jamoatchilik nazoratining natijalariga ko'ra bayonnoma, xulosa, ma'lumotnoma shaklida yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shaklda yakuniy hujjat tayyorlanishi mumkin. Ya'ni davlat nazoratidan farqli o'laroq yakuniy hujjat tayyorlash majburiy emas. Yakuniy hujjat axborot va tavsiya xususiyatiga ega bo'ladi. Unda bayon etilgan axborot, tavsiya va takliflar davlat organlari tomonidan majburiy tartibda ko'rib chiqiladi hamda ular yuzasidan qonuniy

qarorlar qabul qilinadi. Bunda davlat organi jamoatchilik nazorati natijasida tayyorlangan hujjatni bajarishga emas, balki ko'rib chiqishga majbur hisoblanadi. Qonunning 6-moddasida jamoatchilik nazoratining 8 ta shakli aniq ravshan belgilab qo'yildi. Bu shakllarga davlat organlariga murojaatlar va so'rovlar, davlat organlarining ochiq hay'at majlislarida ishtirok etishi kabilar kiradi. Jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o'rganish ham shular jumlasidandir. Qonunda nazorat shakllarini amalga oshirishda jamoatchilikka alohida urg'u berilmoqda. Bu esa kollegiallikni, tashkiliy uyushganlikni talab etadi. Qolaversa, bu masala mohiyatini tushunmagan odamlar tomonidan turli xil suiiste'molliklarga yo'l qo'ymaslikning oldini olishga qaratilgan. Lekin, bu jihat, fuqaro jamoatchilik nazoratida ishtirok etmaydi, degani emas. Ushbu nazorat shakllari ochiq, oshkora o'tkaziladi. Unda muhokama etilayotgan masala o'z huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan yoki daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslar ishtirok etishi, o'z fikrini erkin bildirish va takliflar kiritishga haqli. Qonunning eng muhim qismini jamoatchilik nazorati subyektlari va davlat organlarining huquq va majburiyatlari tashkil etadi. Chunki har qanday munosabatda huquq va majburiyat munosabatning asosini tashkil qilib, undan javobgarlik kelib chiqadi. Qonunda jamoatchilik nazorati subyektlarining tadbirlar o'tkazish tashabbusi bilan chiqish, zarur bo'lgan axborotni davlat organlaridan so'rab olish, nazorat natijalariga ko'ra takliflar va tavsiyalar tayyorlash hamda ularni tegishli organlarga ko'rib chiqish uchun yuborish, tegishli materiallarni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborish, sudga shikoyat qilish, jamoatchilik nazorati natijalarini e'lon qilish kabi huquqlari mustahkamlangan.

Ekspertlar fikricha, jamoatchilik nazorati davlat nazoratidan farqli ravishda asosiy maqsadi, kimnidir jazolash emas, balki qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, dasturlarda jamoatchilik manfaatlarini, fikrini hisobga oldirish, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarining himoyasini, ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxldor bo'lgan vazifalar va funksiyalarni, davlat xizmatlarini samarali ko'rsatilishini ta'minlash hisoblanadi.

Jamoatchilik nazorati natijalarini e'lon qilish chorasi ham rivojlangan demokratik davlatlar tajribasida qo'llaniladigan ijtimoiy-siyosiy ta'sir vositasi hisoblanib, tegishli mansabdor shaxslar faoliyati jamoatchilik orasida keng muhokamalarga, tanbehlariga sabab bo'ladi. Ma'lumki, huquq bo'lgan joyda majburiyat ham bo'ladi. Shu ma'noda jamoatchilik nazorati subyektlarining qonun hujjatlari talablariga, qonunda belgilangan, davlat organlarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan cheklovlarga rioya etish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmaslik, davlat organlarining faoliyat ko'rsatishi, shuningdek, mansabdor shaxslarning faoliyati uchun to'siqlar yaratmaslik, fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishiga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymaslik kabi majburiyatlari o'z ifodasini topgan. Qonunni qabul qilish ishning bir qismi, qolgani uning ijrosini ta'minlashdir. Qonunda ko'rsatib o'tilgan jamoatchilik nazorati shakllari, tomonlarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Shu ma'noda, jamoatchilik nazorati samarali faoliyat ko'rsatishi uchun fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan o'rta sinf – mulkdorlar qatlami uyushishi, davlat hokimiyati organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflik keng ta'minlanishi, fuqarolar va davlat xizmatchilarida siyosiy-huquqiy ong va madaniyati talab darajasida bo'lmog'i zarur. Bunda bugungi kunda 9500 dan ziyodni tashkil etayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari qonunda ifodalangan huquqlarini amalga oshirish uchun o'z "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqishi maqsadga muvofiqdir. Qonun ijrosini samarali ta'minlashda 2018-yil 4-mayda tuzilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi"ning o'rni va roli juda muhim. Maslahat kengashining asosiy vazifalari fuqarolik jamiyatini va keng jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilish, shuningdek, mazkur sektorning holati va rivojlanish tendensiyasi haqida prezidentni muntazam xabardor qilish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mas'ul institutlarning jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga takliflar kiritish

belgilangan. Jamoatchilik nazoratining qonuniy asoslari yaratilgani jamiyatning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlashda muhim asos bo'ldi. Bu odamlarning kayfiyati, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlash, jamiyatda manfaatlar muvozanatini ta'minlash g'oyasini izchil amalga oshirishga xizmat qiladi.

Demak , jamoatchilik boshqaruv tizimini huquqiy jihatdan mukammal tartibga solish insonning huquq va erkinliklari nafaqat davlat tomonidan kafolatlanganligini, balki davlat organlari faoliyatida ularning ustuvor ahamiyatga egaligini ta'minlaydi va bunda jamoatchilik nazoratining mavjudligi siyosiy hokimiyat tom ma'noda xalq qo'lida ekanligining ifodasi hisoblanadi.



## **1.2. O‘zbekistonda demokratik islohotlarning takomillashib borish jarayonida jamoatchilik boshqaruvining huquqiy asoslarini rivojlanishi.**

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingi davrda respublikamizda yangi huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish borasida umumiy g‘oya va prinsiplarning nazariy asoslarini yaratish hamda hayotga tatbiq etish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda o‘tkazilayotgan tub siyosiy va iqtisodiy islohotlarda o‘z aksini topayotgan iqtisodiy siyosat pirovard natijada demokratik islohotlar qilish, kuchli suveren huquqiy davlat barpo etish uchun mustahkam siyosiy va moddiy negiz yaratishga yo‘naltirilgan. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek - “Maqsadimiz – demokratik, adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish. Bu bizning ezgu orzuyimiz, strategiyamizdir”<sup>12</sup>. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasi mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishni avj oldirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Sessiyada mamlakat birinchi Prezidenti I.A.Karimov “O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari”ga doir ma’ruzasi bilan so‘zga chiqdi.<sup>13</sup> O‘z nutqi bilan Prezidentimiz adolatli demokratik jamiyat qurishning konseptual nazariy asoslarini yanada boyitdi. Xususan, birinchi Prezident I.A. Karimovning ushbu ma’ruzasida mamlakatda fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy yo‘nalishlari va maqsadlarini belgilab berildi: “Beshinchi ustuvor yo‘nalish fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo‘lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o‘rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Yoki boshqacha qilib aytganda, bu — “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo‘nalish ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq ko‘p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o‘tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun,

---

<sup>12</sup>Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida.-T,1995 yil

<sup>13</sup>I.A.Karimov Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasi.«O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari»ga doir ma’ruzasi .Xalq so‘zi.2002 yil 30 avgust

avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, xo'jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, xususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim". Mamlakatda XXI asr boshlarida "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" konseptual siyosiy dasturni amalga oshirish maqsadlaridan kelib chiqib, markaziy davlat organlarining ayrim vakolatlarini mahalliy davlat hokimiyati, o'zini-o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlariga bosqichma-bosqich berib borish asosida jamiyat qurilishini erkinlashtirish jarayonlari boshlandi. Bu sohada quyidagi yo'nalishlarda islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda:

Birinchi, jamiyat a'zolarining ongi, irodasi, madaniyati, ma'naviyati va bilimi yuksak darajada bo'lishiga erishish, ularning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatiga alohida e'tibor berish;

Ikkinchi, jamiyat a'zolarining manfaatlari uyg'unlashuvi jarayonlarini shakllantirish, jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlar bilan mushtarakligiga erishish;

Uchinchi, jamiyatning takomillashuvi, yangilanishi uchun kuchli va real siyosiy, iqtisodiy, madaniy imkoniyatlarni shakllantirish;

To'rtinchi, jamiyat a'zolari va tuzilmalari o'rtasidagi hamkorlik asosida jamiyatning umumiy manfaatlarini uyg'unlashtirish;

Beshinchi, jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy qoidalar ta'sirini kuchaytirish, ularga ongli ravishda bo'ysunish amaliyotini vujudga keltirish;

Oltinchi, siyosiy hokimiyatning o'z vazifalarini to'liq bajarishiga kengroq va qulayroq imkoniyatlar yaratish, siyosiy hokimiyatga nisbatan jamiyat a'zolari ishonchini kuchaytirish, uning aholi tomonidan keng va faol qo'llab-quvvatlanishiga erishish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatda kuchli demokratik jamiyat barpo etish maqsadlarida davlat hokimiyati vakolatlarini kamaytirish, ya'ni davlat hokimiyati tasarrufida, asosan konstitutsion tuzumni, mamlakatning mustaqilligi hamda hududiy yaxlitligini himoya qilish, huquq-tartibot, mudofaa qobiliyatini ta'minlash inson huquqlari va erkinliklarini, mulk egalarining huquqlarini, iqtisodiy faoliyat erkinligini himoya

qilish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, samarali tashqi siyosat olib borish kabi vazifalarni qondirish ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, strategik ahamiyatga molik masalalar, muhim iqtisodiy va xo'jalik masalalari, pul va valyuta muomala bo'yicha qarorlar qabul qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining huquqiy shart-sharoitlarini yaratish, ekologiya masalalari, umumrespublika transport va muhandislik kommunikatsiyalarini rivojlantirish, yangi tarmoqlarni vujudga keltiradigan ishlab chiqarishni barpo etish masalalari davlat miqyosida hal etilishi, davlatning boshqa barcha vazifalarni bajarishga doir vakolatlari esa mahalliy davlat hokimiyati, fuqarolarning o'zini-ozini boshqarish organlari, nodavlat notijorat va jamoat tashkilotlariga berib borish jarayonlari boshlandi. Shuningdek, davlat organlari faoliyatini nazorat qilish vakolatlarini ham, asosan, o'zini-ozini boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlariga berish belgilandi. Hozirgi davrga kelib, O'zbekistondagi nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat tashkilotlari va siyosiy partiyalar faoliyatning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonuni<sup>14</sup>, O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonuni<sup>15</sup>, O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-ozini boshqarish organlari to'g'risida" (yangi tahrirda)gi qonuni (1999 y. aprel), O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonuni (1999 y. aprel), O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" (yangi tahrir)gi qonuni (1998 y. may), O'zbekiston Respublikasining qonuni "Fuqarolarning o'zini-ozini boshqarish organlari to'g'risida" (yangi tahriri)kabilan muvofiqlashadi.

Fuqarolik jamiyati institutlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslarining o'zagi sifatida dastavval O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tilga olish o'rinlidir. Birinchi Prezidentimiz iborasi bilan aytganda, — "Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Konstitutsiyamizda

---

<sup>14</sup>O'zbekiston Respublikasining Qonuni O'zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalari to'g'risida 15.02.1991 Y.N 223-Xii. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

<sup>15</sup>O'zbekiston Respublikasining qonuni «Siyosiy partiyalar to'g'risida». Toshkent sh., 1996 yil 26 dekabr, 337-I-son. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 2-son,

nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga doir asosiy prinsiplarning mustahkamlab qo'yilishi barcha aholi qatlamlari manfaatlarini aks ettiradigan bunday tashkilotlar keng tarmoqlarining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratdi"<sup>16</sup>. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bo'lim, XIII bobi jamoat birlashmalari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslariga bag'ishlangan. Mazkur bobda jamoat tashkilotlarining turlari, faoliyat ko'rsatish tartibi, ularning davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslariga nisbatan mustaqil ekanligi kabi prinsiplar mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, Konstitutsiyaning 56-moddasida belgilanganidek, — "O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi". Mazkur huquqiy asoslarning yaratilishi nafaqat mamlakatimiz milliy qonunchilik tizimida jamoat tashkilotlarining faoliyatiga oid ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning mustaqil sohasining yuzaga kelishiga olib keldi, balki, unga tizimlilik tusini berdi. Yuqoridagilar bilan birga, jamoat tashkilotlarining huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq masalalar o'z ichiga konstitutsiyaviy, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy huquq normalarini qamrab oluvchi butun qonunchilik tizimining shakllanishiga ham imkoniyat tug'dirdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 34-moddasi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega ekanini e'tirof etish bilan birga, siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emasligini belgilab qo'ygan. Asosiy qonunning 12-moddasida "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi hamda hech qaysi

---

<sup>16</sup>Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O'zbekiston, - 2010. – B.

mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi to'g'risida"gi konstitutsiyaviy tamoyil o'z ifodasini topgan<sup>17</sup>. Birlashishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq yoki xalqaro hujjatlar terminologiyasi bilan aytganda, boshqalar bilan birga muayyan assotsiatsiyalarga uyushishga bo'lgan huquq o'z ichiga: fuqarolarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va umumiy maqsadlarga birgalikda erishish asosida ixtiyoriy ravishda tuziladigan jamoat tashkilotlarining tashkil etish huquqini hamda mavjud jamoat tashkilotlariga kirish yoki undan chiqish huquqini qamrab oladi. Muayyan jamoat tashkiloti faoliyatida qatnashish yoki qatnashmaslik har bir fuqaroning shaxsiy ishi hisoblanadi. Fuqarolarni jamoat tashkilotiga a'zo bo'lib kirishga majburiy tarzda undash yoki undan chiqishga to'sqinlik qilish huquqqa zid faoliyat deb tan olinadi. Bundan tashqari, konstitutsiyaning 18-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida teng ekanliklari" belgilab qo'yilgan. Asosiy Qonunning 35-moddasida har bir shaxs bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan.

Shu bilan birga, jamoat tashkilotlariga uyushish erkinligi muayyan chegaralar doirasida amalga oshiriladi. Bunda mazkur huquqdan jamiyatga qarshi maqsadlarda foydalanish mumkin emas. Shu jihatdan olganda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan, "Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda

---

<sup>17</sup>O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2018-yil.

jamoatbirlashmalarining tuzilishi va faoliyatini hamda maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi”<sup>18</sup>.

Respublikamizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining yanada jadal rivojlanishida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining “Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Shuni ham aytish kerakki, Prezidentimiz o‘z ma‘ruzasida ta‘kidlaganidek, Oliy Majlis huzurida “Jamoat fondi” va “Parlament komissiyasi” tashkil etilgan. Bu ikki tuzilmaning faoliyati ham samarali kechmoqda. Masalan, faqat keyingi uch yilning o‘zida fuqarolik institutlari taqdim etgan ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish maqsadida Jamoat fondi tomonidan 11 mlrd. so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi. Oliy Majlis huzuridagi “Jamoat fondi” tomonidan “Parlament komissiyasi” o‘z tarkibida nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat tashkilotlarining vakolatli vakillari bilan birga deputatlar moliyaviy tuzilmalarning mas‘ul xodimlarini birlashtirgan. Mazkur komissiya fuqarolik institutlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘larni ochiq, aniq va oshkora yo‘naltirishni, bu mablag‘larni demokratik asosda taqsimlashni amalga oshiradi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – bu nodavlat va jamoat tashkilotlarini rivojlantirishdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilot (NNT)larining soni 9500 dan ortiqdir. Agar bu ko‘rsatkichni 2000 yildagi holat bilan qiyoslasak, ularning soni bir necha baravarga ko‘payganligini ko‘ramiz. Nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyati institutlari tizimida markaziy o‘rin tutadi. Shuning uchun ular faoliyatini rivojlantirish, ularning mustaqilligini to‘la ta‘minlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, faoliyatini tashkiliy-huquqiy, moddiy-texnikaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Nodavlat notijorat tashkilotlari

---

<sup>18</sup> Qarang: O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018

faoliyatining kafolotlari to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Bu qonunni qabul qilishdan maqsad quyidagilarda ifodalanadi:

- NNTlarini yanada rivojlantirish;
- ularning mustaqil ish yuritishini ta'minlash;
- ularning chinakam mustaqilligini ta'minlash;
- ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- ular faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- ular faoliyatini moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish.

Nodavlat notijorat tashkilotlarini "*uchinchi sektor*" deb ham ataydilar. Shu o'rinda aytish kerakki, —birinchi sektor deyilganda davlat va ikkinchi sektor deyilganda tijorat sektori (yoki shaxsiy sektor deb ham atashadi) nazarda tutiladi. Respublikamizda nodavlat notijorat tashkilotlariga oid - Milliy assotsiatsiya uyushmasi mavjud. Respublikamizda 2018 yilda faoliyat yuritgan notijorat tashkilotlari soni 23749 tani tashkil etadi. Ulardan 17120 ta (yoki jamiga nisbatan 72,1%) notijrat tashkilotlari ta'lim sohasida, 2606 tasi (11,0%) notijorat tashkilotlari davlat boshqaruvi va mudofaa sohasida, 1286 ta (5,4%) notijorat tashkilotlari sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida, 1136 ta (4,8%) notijorat tashkilotlari professional, ilmiy va texnik faoliyat sohasida, 565 ta (2,4%) notijorat tashkilotlari san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida faoliyat ko'rsatadi. 2017 yilda faoliyat ko'rsatayotgan notijorat tashkilotlari 23749 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan 2537 tasi Samarqand viloyatida, 2378 tasi Farg'ona viloyatida, 2166 tasi Qashqadaryo viloyatida, 2027 tasi Toshkent viloyatida joylashgan.

Jamoat tashkilotlarda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning samarasi va davomiyligini ta'minlash borasidagi faoliyatni quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil etish mumkin:

**Birinchi**dan, fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan jamoat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funksiyasi, ularning davlat hokimiyatini muayyan darajada chegaralash, ya'ni davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ekanligini e'tirof etish

joiz. Aytish mumkinki, jamoat tashkilotlarining roli aynan demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo'llab-quvvatlash va mustahkamlashda ko'rinadi.

**Ikkinchidan**, mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonida siyosiy partiyalar muhim funksiyalarni amalga oshiradilar. Siyosiy partiyalarning asosiy funksiyasi alohida olingan fuqarolar, ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini birlashtirib, ularni siyosiy manfaatlar majmuasi darajasiga ko'tarish, shuningdek, bu uyg'unlashgan manfaatlarning jamiyat uchun bir xilda ahamiyat kasb etishini ta'minlay olishdir. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan siyosiy partiyalar mavjud konstitutsiyaviy huquq me'yorlari doirasida, shuningdek, fuqarolarning huquq va erkinliklariga daxl qilmagan holda shakllanib kelayotgan siyosiy jarayonlar va munosabatlar tamoyillari doirasida muqobil siyosiy yo'llarni ifoda etuvchi vosita sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Har bir partiyaning o'z dasturi va maqsadlariga mos ravishda nazariy, mafkuraviy, siyosiy va tashkiliy funksiyalari bo'lib, ular partiya faoliyati va ichki hayotining ajralmas qismidir.

**Uchinchidan**, jamoat tashkilotlarining eng ommaviy shakllaridan biri hisoblangan kasaba uyushmalari jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadilar. Ta'kidlash joizki, ushbu institutning ijtimoiy jarayonlardagi ta'siri faqatgina mehnat munosabatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki undan ham kengroq doiraga qaratilgan. Mamlakatimizda ijtimoiy voqelikning jadal sur'atlarda rivojlanib borishi, jamiyatda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar fuqarolik jamiyatining asosiy institutlarining yangi funksiyalarini shakllanishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda deyarli barcha jamoat tashkilotlari mamlakatni demokratik yo'nalishda rivojlantirish, muayyan sohalar yuzasidan insonning huquq va erkinliklarini himoya qilish, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish kabi masalalarga o'zlarining asosiy faoliyat yo'nalishlari sifatida qaramoqdalar. Jamoat tashkilotlariga birlashgan fuqarolar ular orqali o'zlarining turli xil manfaatlari va huquqlarini amalga oshirishni ko'zlaydilar. Bunday sharoitda jamoat tashkilotlari oldiga



fuqarolarning davlat ishlarini amalga oshirishda ishtiroklarini ta'minlash hamda ularning mavjud qonunchilikka nisbatan ijobiy munosabatlarini shakllantirish va shu orqali ularni qonunga itoatkor shaxs sifatida tarbiyalash kabi yangi vazifalar qo'yilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida insoniyat oldiga muayyan maqsad va vazifalarning qo'yilishi hamda yangidan-yangi muammolarning yuzaga kelishi o'z navbatida, jamoat tashkilotlari faoliyat yo'nalishlarining o'zgarib borishi, o'z-o'zidan uning o'zgacha mohiyat kasb etishiga olib keladi. Binobarin, jamoat tashkilotlari bugungi kunda jamiyatni demokratlashtirish va isloh qilish jarayonining ajralmas va zaruriy bo'g'iniga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda ularning funksiyalari doirasi kengayib borishi hamda turli xil shakllarda namoyon bo'lishi ob'ektiv xususiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni<sup>19</sup> xalqimiz tomonidan mamnuniyat bilan kutib olindi. Unda yaqin besh yillikda mamlakatimiz zabt etishi nazarda tutilgan ulkan dovonlar, xalqimiz hayot darajasini yuksaltirishning mexanizmlari aniq belgilab berildi. Prezidentimizning "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" - degan fikrlari barcha rahbar faoliyatining muhim mezonga aylandi. Zero, barcha soha xodimlarining zimmasidagi vazifalarni bajarishga katta mas'uliyat bilan yondashishi, ishlarni qonuniy muddatlarda ko'rib chiqib, adolatli va asosli qarorlar qabul qilishi bugungi kun talabidir. Davlatimiz rahbarining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni mamlakatimiz hayotida katta voqelik bo'ldi. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilab bergan mazkur hujjatda qayd etilgan har bir vazifa shu zaminda yashayotgan, ertangi kunga qat'iy ishonch bilan

---

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 – fevral 2017 – yilda 2017 -2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati. 2017 – yil. 7 –fevral.

qarayotgan har bir inson hayoti bilan chambarchas bog'liq. Harakatlar strategiyasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan keng jamoatchilik, ishbilarmon doiralar, davlat organlari vakillarining uchrashuvlari, xalq bilan muloqotlar chog'ida bildirilgan mamlakatimizni ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, madaniy-gumanitar rivojlantirishning kontseptual masalalari kiritilgani e'tiborga loyiq.

Harakatlar strategiyasining birinchi bo'lim - Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish bo'limining 3- bandi ham O'zbekistonda jamoatchilik boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, quyidagi vazifalar belgilab qo'yilgan:

- xalq bilan muloqotning samarali mexanizmlarini joriy etish;
- jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikning samarasini oshirish;
- fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish;
- mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'рни va faoliyati samaradorligini oshirish;
- ommaviy axborot vositalarining rolini kuchaytirish, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilish.

Demak, jamiyatni modernizatsiyalashning asosiy shartlaridan biri xalqning siyosiy madaniyatini yuksaltirish, unga demokratik erkinliklarning mazmun va mohiyatini to'g'ri tushunib olish hamda uni amalda qo'llash imkoniyatlarini yaratib berishdan iboratdir. Hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, siyosiy madaniyat, avvalo fuqarolar, davlat idoralari va uning mansabdor shaxslari, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari hamda o'zini o'zi boshqarish idoralarining Konstitutsiya va qonunga bo'ysinishidan boshlanadi. Shuning uchun ham biz o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan adolatli fuqarolik jamiyatida nafaqat aholi siyosiy-huquqiy bilimining oshishi, siyosiy ongining yuksalishi, balki, birinchi navbatda, barcha darajadagi mustaqil hokimiyat tarmoqlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, o'zini o'zi boshqarish idoralari faoliyati samaradorligining ortishiga ham alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki,

jamiyatning barcha jabhalarini, ayniqsa siyosiy va iqtisodiy hayotni erkinlashtirish yo‘lidan borayotgan har bir jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyati yuksak, erkin fikrlaydigan va sog‘lom tafakkurga ega bo‘lgan shaxsni tarbiyalashga intiladi. Faqat ana shunday shaxslar yashayotgan jamiyatdagina demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, haqiqiy ko‘ppartiyaviylik, fikrlar xilma-xilligi, inson huquq va erkinliklari to‘liq ta’minlanadi, insonparvarlik va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashash prinsipi hayotning asosiy mezoniga aylanadi. Chunki demokratiyaning ijodkori, uni amalga oshiruvchisi, tarqatuvchisi va rivojlantiruvchisi insondir.

## **II BOB. Mamlakatimizda jamoatchilik boshqaruv – nazorati tizimi va uni amalga oshirish yo'llari.**

### **2.1. Nodavlat-notijorat tashkilotlarining jamoat boshqaruvi va nazoratidagi o'rni.**

Erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida amalga oshirayotgan islohotlarimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining o'rni va roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz. Nodavlat notijorat tashkilotlar dastlab jamiyatni o'zini o'zi boshqarishi va uni mustaqil ijtimoiy birlik sifatida yashashini ta'minlash ehtiyojlari va manfaatlari asosida paydo bo'ldi. XX asrning o'rtalariga kelib esa nodavlat va notijorat tashkilotlar demokratik jamiyatning muhim va asosiy institutlaridan biriga aylandi. Shunga ko'ra, nodavlat notijorat tashkilotlar mazmun va mohiyatini chuqur anglash, ularning demokratik fuqarolik jamiyatining muhim va asosiy institutlaridan biri ekanligi to'g'risidagi tushunchalarni o'rganishga ehtiyoj sezilmoqda. Shuningdek, demokratik jamiyat tushunchasi to'g'risidagi tasavvurlar nodavlat notijorat tashkilotlarni chuqur idrok etishga imkoniyatlar beradi.

Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning sessiyasida mamlakatda fuqarolik jamiyati qurishni avj oldirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Sessiyada mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari"ga doir ma'ruzasi bilan so'zga chiqdi<sup>20</sup>. O'z nutqi bilan birinchi prezidentimiz adolatli demokratik jamiyat qurishning konseptual nazariy asoslarini yanada boyitdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatda fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy yo'nalishlari va maqsadlarini belgilab berdi: "Beshinchi ustuvor yo'nalish fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti bo'lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Yoki boshqacha qilib aytganda, bu –

---

<sup>20</sup>I.A.Karimov Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasi.«O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari»ga doir ma'ruzasi .Xalq so'zi.2002 yil 30 avgust

“Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Hammamizga ayonki, bu yo‘nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog‘liq ko‘p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o‘tkaza borishni taqozo etadi. Buning uchun, avvalambor, davlatning iqtisodiy sohaga, ho‘jalik yurituvchi tuzilmalar, birinchi galda, hususiy sektor faoliyatiga aralashuvini cheklash lozim”<sup>21</sup>.

Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish uchun avvalo manfaatlar va ijtimoiy manfaatlar tushunchasini o‘rganish talab etiladi. Ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda ijtimoiy manfaatlarini hisobga olish, turli qatlamlar va guruhlarining siyosiy ehtiyojlari va manfaatlarini uyg‘unlashtirish, ularni qondirishning ahamiyati demokratik fuqarolik jamiyati takomillashib borgan sayin yanada kuchaydi.

Ma‘lumki, zamonaviy mamlakatlarda hukumat alohida olingan fuqarolarga nisbatan ular a‘zo bo‘lgan ijtimoiy guruhlar vositasida ta‘sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy guruhlarini birlashishga, harakat qilishga undovchi kuch, bu ularning manfaatlaridir. Manfaatlar alohida ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini sifatida shakllangan bo‘lsada, bu guruhlarining a‘zolari faqat mazkur bir guruhning emas, balki bir vaqtning o‘zida boshqa ijtimoiy guruhlarining ham a‘zosi bo‘lishi mumkin. Buning sababi shuki, har bir ijtimoiy qatlamning o‘zi bir necha kichik guruhlariga bo‘linib, ular bir-biridan malakasi, qanday mashg‘ulot bilan bandligi va boshqa ijtimoiy belgilari bilan farqlanadi. har bir guruh a‘zosi ish joyida birinchi, bo‘sh vaqtida ikkinchi guruhning a‘zosi bo‘lishi mumkin.

Fuqarolarning ma‘lum ijtimoiy guruhga mansubligidan kelib chiqib, nodavlat va notijorat tashkilotlarga uyushishi natijasida manfaatlar uyg‘unlashuvi ro‘y beradi. qaysi shaxsning qanday ijtimoiy guruhga a‘zoli, uning manfaatlaridan qay biri ustuvor va barqaror ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, u o‘zi uchun muhimroq bo‘lgan ijtimoiy guruhga a‘zo bo‘ladi. Ana

---

<sup>21</sup>Karimov I.A.”O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari”. T., O‘zbekiston. 2002 yil. 88 bet.

shunday ahamiyatli guruhlar ta'siri ijtimoiy tuzulmalar irodasini ifodalaydi. Bunday guruhlar manfaatlarini hukumat doimo e'tiborga olishi lozim.

Institutlashgan ijtimoiy guruhlar shaklini olgan manfaatlar guruhlari turli mamlakatlarda ularning tarixiy tajriba va an'analaridan kelib chiqib, turlicha nomlanadi. Masalan, AQShda manfaatlar guruhlari fuqarolik institutlari, volontyorlar tashkilotlari, umumiy manfaatlar guruhlari, bosim o'tkazish guruhlari deb atalsa, g'arbda nodavlat notijorat tashkilotlari, hayriya tashkilotlari, jamg'armalar kabi nomlar bilan ataladi. g'arb sotsiologiyasida esa bu tashkilotlar manfaatlar guruhlari nomi bilan keng tarqaldi. O'zbekistonda esa mustaqillikning ilk davridan boshlab bu tashkilotlar jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ijtimoiy tashkilotlar nomi bilan keng ommalashdi. Rivojlangan mamlakatlarda ishchilar, dehqonlar, fermerlar, ishbilarmonlar, turli kasbiy uyushmalar, birlashmalar (diniy, xotin-qizlar, yoshlar, faxriylar) kabi yuz minglab jamoat tashkilotlari bo'lib, ular o'zlariga a'zo bo'lgan fuqarolarning manfaatlarini va ehtiyojlarini qondirishning o'ziga xos zaruriy faoliyat ko'rsatish maydonidir. Ijtimoiy fanlarning so'nggi natijalariga muvofiq, manfaatlar guruhlari, bu - unga a'zo bo'lgan kishilarning manfaatlarini boshqa guruhlar va siyosiy institutlarning o'zaro munosabatlarida, shuningdek, o'z guruhi ichida ifoda qilish uchun tuzilgan ixtiyoriy tashkilotlardir.

Nodavlat notijorat tashkilotlar jamiyatda mavjud bo'lgan barcha manfaatlarini qamrab olib, ularni ifodalagandagina, ular o'z maqsadlarini samarali bajaradilar. Jamiyatda turlicha, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, milliy, mafkuraviy, madaniy, ekologik, hududiy, mintaqaviy, diniy, shuningdek, yana o'nlab alohida sohalarga doir manfaatlar mavjuddir. Manfaatlar guruhlari ana shu manfaatlarining ifodachisi sifatida paydo bo'ladi va faoliyat yuritadi. Manfaatlarning guruhlar vositasida ifoda etilishi siyosiy qarorlar qabul qilish uchun yordam berishidan tashqari, ular davlat va hukumat organlari ehtiyoj sezayotgan axborotlar va boshqa ma'lumotlarni etkazib berib turishi mumkin .

Nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalaridir. Ular siyosiy partiyalardan farq qilib, hokimiyatni egallash, lavozimlarga nomzodlar

ko'rsatish bilan shug'ullanmaydilar. Lekin, ular hukumat va boshqa siyosiy tashkilotlarga ta'sir qilish uchun harakat qiladilar. Bu sohadagi faoliyat siyosiy tashkilotlar vositasisiz bo'lishi lozim. Manfaatlar guruhlarining harakat usullari siyosiy organlarni ishontirish, maslahat berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy arboblarga ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlarini etkazish, o'z manfaatlarini qondirish uchun tashkiliy tadbirlar o'tkazish bilan chegaralanadi.

Shuningdek, siyosiy partiyalar faoliyatining muhim xususiyatlarini tahlil qilish nodavlat notijorat tashkilotlar, guruhlar, turli birlashmalar, tashkilotlarning faoliyati va harakat doirasini o'rganmay turib, amalga oshmaydi. Lekin, klassik demokratik nazariyalarda siyosiy guruhlarining maqsadlari ma'lum bir siyosiy yo'lni amalga oshirish uchun hokimiyatni egallash hisoblangan bo'lsa, manfaatlar guruhlarining maqsadi siyosatga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir, deb ifodalangan. Siyosiy partiya asosan turlicha siyosiy manfaatlar, ko'rsatmalar va yo'nalishlarga ega bo'lgan kishilarni birlashtirsa, manfaatlar guruhlarini ko'proq o'z a'zolari uchun xos bo'lgan manfaatlar, asosan bir yoki bir necha muammolarni hal qilishga o'z diqqat-e'tiborini qaratadi. Nodavlat notijorat tashkilotlar samarali raqobat yo'llarini va siyosiy jarayonda ommaviy tarzda qatnashish usullarini shakllantiradi. Ular o'z manfaatlarini himoya qilgan holda davlatning u yoki bu sohadagi siyosati harakatlarini muvozanatda saqlab turish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar har bir alohida fuqaro (shaxs)ga, siyosiy etakchiga ta'sir o'tkaza olish va unga siyosatda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning funksiyalari turli-tumandir. Lekin, ularning asosiy funksiyalaridan biri turli ijtimoiy guruhlar va qatlamlar manfaatlarini artikulyasiya qilishdir. Manfaatlar guruhlarini individlardagi turli yo'nalishdagi qarashlar va fikrlarni bir tizimga keltiradi, biron bir tashkilotning bir qolipga solingan manfaatlar tizimi asosida tashkilotning harakat dasturini shakllanishiga yordam beradi. Guruhlar a'zolarining ayrim olingan manfaatlari siyosiy jarayonlarga manfaatdor guruhlar vositasida aniq, bir tizimga solingan talablar tarzida tatbiq etiladi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar ko'plab ayrim manfaatlarni agregatsiya qilish (munozaralar va muhokamalar yordamida

turli manfaatlarni uyg'unlashtirish va ular o'rtasida ma'lum bir munosabatlar tizimini o'rnatish)ni ham amalga oshiradi. Bu jarayonda eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etadigan, guruh a'zolarining keng qatlamlari qarashlarini ifoda etadigan manfaatlarni tanlab olinadi va ularni amalda qondirishning zaruriy choratadbirlari ko'riladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar ichida faqat siyosiy partiyalargina siyosiy faoliyat bilan bevosita shug'ullanishi mumkin. Siyosiy partiyalarning davlat bilan xalq ommasi o'rtasidagi munosabatlarida turli ijtimoiy qatlam va guruhlarining siyosiy manfaatlarni va irodalarini ifodalashi muhim ahamiyat kasb etadi. Siyosiy manfaatlarni deb, ijtimoiy faoliyat sub'ektlarining o'z holatini siyosiy kurash vositasida barqarorlashtirish va yaxshilashning ob'ektiv va sub'ektiv imkoniyatlarini anglashga aytiladi. Siyosiy manfaatlarni sub'ektlari asosan ijtimoiy birliklar, individlar va tashkilotlardan iboratdir. Ijtimoiy birliklar sinfiy, etnik, kasbiy, hududiy, demografik, mehnat jamoasi va oilaviy xarakterlarga ega bo'ladi. Tashkilotlar esa davlat, jamoat, konfessiya, lobbi, ta'sir ko'rsatish hamda manfaatlarni guruhlar va ijtimoiy harakatlar shakliga ega bo'ladi.

Siyosiy manfaatlarni xarakteri siyosiy tuzumga nisbatan turlichadir. Siyosiy manfaatlarni tuzumni o'zgartirish, uni modernizatsiya qilish, shuningdek, mavjud tuzumni barqaror saqlashga yo'naltirilishi mumkin. Ijtimoiy taraqqiyotga nisbatan esa manfaatlarning xarakteri progressiv, reaksiyon va mo'tadil shakllarda ifodalanadi.

Siyosiy manfaatlarni xarakterini ifodalash uchun odatda siyosiy yo'nalishlarga nisbatan "ultrao'ng", "o'ng", "o'ng mo'tadil", "mo'tadil", "o'ng mo'tadil", "o'ng va ultrao'ng" tushunchalari ishlatiladi. Tashkilotlarga nisbatan esa "davlat", "siyosiy partiya", "jamoat tashkilotlari", "jamoat harakatlari" va individlar tushunchalari qo'llanadi.

Hozirgi davrda AQShda tadbirkorlar manfaatlarni ifoda etuvchi manfaatlarni guruhlarini uyushmalarga a'zo bo'lib, "Mustaqil Biznes Milliy federatsiyasi"ga birlashganlar. Germaniyada esa "Nemis kasaba uyushmasi federal birlashmasi", "Nemis ish beruvchilari uyushmasi federal birlashmasi", "Germaniya sanoatchilari



federal birlashmasi”, “Soliq to‘lovchilar uyushmasi”, “Demokratik olimlar uyushmasi”, “Nemis sport uyushmasi” kabi bir qancha manfaatlar guruhlari faoliyat ko‘rsatadi. hududiy, mintaqaviy va federal darajalarda ham hunarmandlar, talabalar, vrachlar, madaniyat arboblari, turli iste‘molchilar uyushmalari va tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi. Germaniyada 4-5 ming atrofida ana shunday birlashmalar faoliyat yuritmoqda. Boshqa rivojlangan mamlakatlarda ham manfaatlar guruhlari jamiyatning asosiy qismini tashkil etadi. AQShda 1 mln.dan ko‘proq nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritadilar. Ularda Amerika axolisining 7,8 %i xizmat qiladi. AQShda aynan jamoat tashkilotlari sog‘liqni saqlash, ta‘lim, madaniyat, san‘at va fuqarolarni ijtimoiy ta‘minlash va muhofazalash sohasida davlatning asosiy hamkori hisoblanadilar. Dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlari hukumatlari ham muhim iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va boshqa muammolarni hal etishda jamoat tuzilmalariga, birinchi navbatda nodavlat notijorat tashkilotlariga tayanadilar. Rivojlangan 22 ta mamlakatda ish bilan band aholining 4,9 foizi bevosita nodavlat sohada mehnat qiladilar. Bu ko‘rsatkich Niderlandiyada 12,4, Irlandiyada 11,5, Belgiyada 10,5, Isroilda 9,2, Avstraliyada 7,2, Buyuk Britaniyada 6,2 foizga tengdir<sup>22</sup>.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning hokimiyatga daxldor maqsadlari, parlament vositasida hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolari faqat partiyalar bilan hamkorlikda bajarilishi yoki hal bo‘lishi mumkin. o‘z navbatida, siyosiy partiyalarning ham manfaatlar guruhlarisiz saylov kampaniyalarida muvaffaqiyatga erishishi, jamiyatni anglashi qiyin kechadi.

Demokratik jamiyatning muhim belgilaridan biri bu - ko‘p partiyalilik bilan bir qatorda o‘z a‘zolarining yuksak siyosiy madaniyatiga tayangan manfaatlar guruhlarining mavjudligi, ularning jamiyat va davlatning barcha institutlari bilan o‘zaro teng huquqlilik asosida faol munosabatda bo‘lishidir. Siyosiy partiyalar o‘z o‘rnida nodavlat notijorat tashkilotlarning turli manfaatlarini birlashtiradi, o‘zida

---

<sup>22</sup>Qarang: Анхайер Хелмут. Гражданское общество и «третий сектор». «Deutschland» jurnali, 2000, N5,

ifoda etadi. Shu bilan birga o‘z manfaatlari yo‘lida bu guruhlardan foydalanadi va hamkorlik qiladi.

O‘zbekistonda davlat mustaqilligi e‘lon qilingan dastlabki yillardan boshlab mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov boshchiligidagi hukumat fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish maqsadlaridan kelib chiqib, nodavlat notijorat tashkilotlarini demokratik tamoyillar asosida isloh etishga muhim e‘tibor berib kelmoqda. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.A.Karimov mamlakat taraqqiyoti to‘g‘risida so‘zlar ekan, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning strategik maqsadlarini quyidagicha ifodalaydi: “Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo‘lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdir”<sup>23</sup>.

Milliy mustaqillikning dastlabki davridayoq mamlakatda fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lida uning muhim institutlaridan biri bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlarning erkin va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun huquqiy asoslar yaratildi. Konstitutsiyaning alohida “Jamoat birlashmalari” deb nomlangan bobi respublikada fuqarolik jamiyati va ko‘p partiyaviylik tizimini qaror toptirish uchun ham huquqiy, ham amaliy jihatlardan shart-sharoitlar yaratdi. Unga binoan jamoat birlashmasi, kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar kabi tushunchalarga huquqiy aniqliklar kiritiladi. Endi ular demokratik talqinlar asosida ta‘riflana boshlandi. Ayniqsa, Konstitutsiyaning 58-moddasidagi “Davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta‘minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi. Davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoat birlashmalari faoliyatiga aralashishiga, shuningdek, jamoat birlashmalarining davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatiga aralashishiga yo‘l qo‘yilmaydi”, 34-moddasidagi “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar. Siyosiy partiyalarda, jamoat birlashmalarida, ommaviy harakatlarda, shuningdek, hokimiyatning vakillik organlarida ozchilikni tashkil

---

<sup>23</sup>Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. -T.:O‘zbekiston, 1995. 9-bet.

etuvchi muholifatchi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qadr-qimmatini hech kim kamsitishi mumkin emas”<sup>24</sup>, degan fuqarolik jamiyat mustaqilligini ta’minlashga doir huquqiy prinsipni e’tirof etilishi respublikadagi jamiyat taraqqiyoti insoniyat hayotining bir necha asrlar mobaynida tajribalaridan va sinovlaridan muvaffaqiyatli o’tgan fuqarolik jamiyati sari intilayotganligini bildiradi. O‘zbekistonda saylov tizimi uchun Konstitutsiyaning “Saylov tizimi” deb nomlangan bobidagi 117-moddaga binoan respublika “fuqarolari erkin ravishda vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar”<sup>25</sup>.

Oliy Majlis tomonidan 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunga binoan “Nodavlat notijorat tashkiloti - jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foйда) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir. Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma’rifiy maqsadlarga erishish, ma’naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, hayriya faoliyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi”<sup>26</sup>.

O‘zbekistonda amaldagi qonunchilikka binoan nodavlat notijorat tashkilotlariga quyidagi huquqlar berilgan:

-o‘z a‘zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

-ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish;

-davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining karorlarini ishlab chiqishda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish;

-o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot tarqatish;

---

<sup>24</sup>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2018-yil

<sup>25</sup>Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. -T.: O‘zbekiston, 1995. 35-6er.

<sup>26</sup>«Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuniga sharhlar. -T.: 2002, 14-be

-ommaviy axborot vositalarini ta'sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish;

-ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish;

-o'z ramziy belgilarini ta'sis etish;

-o'z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig'ilishlar, konferensiyalar o'tkazish;

-qonun hujjatlariga muvofiq vakolathonalar ochish va filiallar tashkil etish.

Fuqarolik jamiyatini shakllantirish omillaridan biri siyosiy maydonda demokratik mamlakatlarga xos bo'lgan partiyaviylik tizimini qaror toptirishdir. Faqat ko'p partiyaviylikka asoslangan ijtimoiy-siyosiy munosabatlar majmuasigina fuqarolik jamiyatini qurish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. har bir mamlakatdagi davlat, hukumat va parlamentni shakllantirishda siyosiy partiyalarning qanday mavqega egaligi, bu jarayonlardagi ishtirokining qanday kechishi, xalqning partiyaviylik tizimi asosida kechgan saylovlardagi faollik darajasi hozirgi davrga kelib demokratiya me'yorlarini belgilab bormoqda.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan siyosiy partiyalarning demokratik tamoyillar asosida faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan barcha huquqiy asoslar Konstitutsiya va qonunlarda o'z ifodasini topdi. Jumladan, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunda siyosiy partiyalarni tuzish, ularning faoliyat ko'rsatish prinsiplari, partiyaga a'zolik, siyosiy partiya faoliyatining kafolatlari, ustavi, ro'yhatga olish, partiyalarning mulkiy munosabatlariga doir barcha huquqiy maqomlarning mujassamlashgani O'zbekistonda ko'p partiyaviylik tizimini qaror toptirishning kafolatlaridan biriga aylandi. Mazkur qonunlarga binoan siyosiy partiyalar fuqarolarning siyosiy irodalari shaklanishini ta'minlash uchun erkinlik huquqiga ega bo'ldilar, partiyalarning o'zaro huquqiy tengligi, shuningdek, ularning jamiyat oldidagi mas'uliyati qonunlashtirildi.

Mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlar mustaqilligini ta'minlash, shuningdek, ularni fuqarolik jamiyatining muhim institutiga aylanishini ta'minlash

maqsadlarida davlatning “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” konseptual siyosiy dasturi qabul qilindi. Jamiyat siyosiy tizimini yanada erkinlashtirish masalalari mazkur siyosiy dastur qabul qilinganidan keyin yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon jamoatchiligi tomonidan tan olingan “o‘zbek modeli” asosida jamiyatni har tomonlama isloh etishning asosiy yo‘nalishi fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurishga qaratildi. Jamiyatning siyosiy tizimi ijtimoiy guruhlarning xilma-xil ehtiyojlari va manfaatlarini o‘zida ifodalashga va ularni hayotga tatbiq etishga qaratilgandir. O‘z o‘rnida nodavlat notijorat tashkilotlar va siyosiy institutlar bevosita yoki bilvosita siyosiy hokimiyatning amal qilishiga hissa qo‘shadi yoki bu jarayonlarda ishtirok etadi. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyati natijasida jamiyat siyosiy tizimi kengliklarida jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy hayotiga mansub bo‘lgan turli-tuman ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini o‘zaro ziddiyatlashuvi natijasida rivojlanish ro‘y beradi. Shuningdek, bu jarayonlar turli ijtimoiy qatlam va guruhlarning o‘zaro kelishuvi va hamkorligiga imkoniyatlar yaratadi.

Mustaqillikning dastlabki davrlarida O‘zbekiston “Mahalla” hayriya jamg‘armasi tashkil topdi. O‘tgan davr ichida “Sog‘lom avlod uchun” xalqaro nohukumat hayriya jamg‘armasi, “Ekosan” xalqaro ekologiya va salomatlik jamg‘armasi, “Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasi”, “Xalqaro Amir Temur” jamg‘armasi, “Xalqaro Imom Buxoriy” jamg‘armasi, “Oltin meros” jamg‘armasi, respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi, “Xalq birligi” harakati, O‘zbekiston faxriylarini qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi, O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jamg‘armasi (hozirda O‘zbekiston jurnalistika ijodiy uyushmasi), O‘zbekiston yoshlarining “Kamolot” ijtimoiy harakati (hozirda “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi”), jamoatchilik fikrini o‘rganish “Ijtimoiy fikr” markazi, Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar Palatasi, Milliy matbuot markazi, Baynalmilal madaniy markaz, respublika “Ustoz” jamg‘armasi (hozirda “Iste’dod”) kabi nodavlat tashkilotlari tuzildi. O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi demokratik prinsiplar asosida butunlay qaytadan tashkil etildi. SHu bilan birga,

“O‘zbekiston tadbirkor ayollar uyushmasi”, “Ayol va salomatlik”, ayollarning “Mehri” tashkiloti, “Ayollar resurs markazi”, “Ayol va jamiyat” instituti kabi hotin-qizlar muammolarini yechish va ular manfaatlarini ifodalaydigan nodavlat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda.

O‘zbekistonda BMT rivojlanish da sturlari asosida o‘nlab xorijiy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, “Britaniya Kengashi”, “Konrad Adenauer jamg‘armasi”ning Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha vakolatxonasi, “Fridrih Ebert jamg‘armasi” vakolatxonasi, Ta’lim va tillar o‘rganishda hamkorlik qilish bo‘yicha Amerika Kengashi (AKSELS), YUNESKO vakolatxonasi, Germaniyaning “Gyote instituti”, Fransiyaning “Alyans Franse” kabi yana o‘nlab xorijiy mamlakatlar nodavlat tashkilotlari vakolatxonalari va filiallari O‘zbekistonning turli sohalarida keng faoliyat yuritmoqda.

Hozirgi kunda yurtimizda 9500 dan ortiq nodavlat notijorat tashkiloti mavjud, 29 ta xalqaro va xorijiy nohukumat tashkilotlarining filial va vakolatxonalari faoliyat yuritmoqda. 2018 yilda “Nuroni” jamg‘armasi, Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, Savdo-sanoat palatasi, o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika kengashi kabi nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan alohida farmon va qarorlar qabul qilindi. Ammo ana shunday muhim sa‘y-harakatlarga qaramasdan, aholining muammolarini tizimli o‘rganish, ularni aniq hal etish, ayniqsa, ijtimoiy sharoiti og‘ir ayollarni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar va xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularni ish bilan ta‘minlash masalalarida bu tashkilotlarning ishtiroki yetarli darajada sezilmayapti. Ular faqat nomiga yig‘ilishlar o‘tkazish bilan mashg‘ul bo‘lib qolmoqda. . Ushbu ijtimoiy tuzilmalar bilan amaliy muloqotni yo‘lga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy Majlisga Murojaatnomasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida, ”Fuqarolik

jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi"ni tuzish taklif qilindi<sup>27</sup>. Bugungi kunga qadar davlat organlari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning aniq huquqiy mexanizmlari yaratilmagan edi.. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatini xolisona baholashga xalaqit berayotgan edi. Shundan kelib chiqib, davlat va jamiyat boshqaruvida jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan va amaliy mexanizmlarini joriy etish maqsadida "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonun<sup>28</sup> qabul qilindi. Shu munosabat bilan Prezident tomonida murojaatnomada barcha davlat organlari qoshida faoliyat olib boradigan jamoatchilik kengashlari tashkil etish taklif qilindi. Mazkur jamoatchilik kengashlari davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlaydigan, ularni aholi bilan bevosita bog'laydigan ko'priklar vazifasini bajarishi lozim.

Demak, nodavlat notijorat tashkilotlar fuqarolarning ixtiyoriy birlashmalaridir. Ular siyosiy partiyalardan farq qilib, hokimiyatni egallash, lavozimlarga nomzodlar ko'rsatish bilan shug'ullanmaydilar. Lekin, ular hukumat va boshqa siyosiy tashkilotlarga ta'sir qilish uchun harakat qiladilar. Bu sohadagi faoliyat siyosiy tashkilotlar vositasisiz bo'lishi lozim. Manfaatlari guruhlarining harakat usullari siyosiy organlarni ishontirish, maslahat berish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, siyosiy arboblarga ijtimoiy guruhlarining ehtiyojlarini etkazish, o'z manfaatlarini qondirish uchun tashkiliy tadbirlar o'tkazish bilan chegaralanadi. Bu esa nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik boshqaruvida asosiy rol o'ynashini ko'rsatadi.

---

<sup>27</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017yil 22 dekabr.

<sup>28</sup>O'zbekiston Respublikasining Qonuni Jamoatchilik nazorati to'g'risida .Xalq so'zi. 13 Aprel 2018

## **2.2. Mahalla – jamoatchilik boshqaruv tizimining asosiy bo‘g‘ini sifatida.**

Mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta’sirchan kuch bo‘lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Xususan, milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig‘inlari o‘zini o‘zi boshqarishning hududiy birliklari sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida mustahkamlab qo‘yildi.<sup>29</sup>Yuzdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyat hayotining muayyan sohasidagi ishtiroki o‘z aksini topdi. Birgina so‘nggi besh yilda yangi tahrirdagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi hamda “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, mahallalar hamda ulardagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga oid 20 ga yaqin nizom qabul qilinib, ijtimoiy hayotga tatbiq etildi. Shuningdek, tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslari hamda “Mahalla” ma’rifiy teleradiokanali tashkil etildi. Hozirgi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig‘inlari tomonidan ilgari mahalliy davlat hokimiyati organlariga taalluqli bo‘lgan 30 dan ziyod ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda. Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida oxirgi besh yil mobaynida fuqarolar yig‘inlarining 1600 ga yaqin xizmat binolari joriy, 367 tasi kapital ta’mirlandi va 350 dan ziyodi rekonstruksiya qilindi, namunaviy loyihalar asosida 216 ta bino yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi. Amalga oshirilgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar natijasida mahalla noyob, dunyoda o‘xshashi bo‘lmagan tuzilmaga aylandi, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish

---

<sup>29</sup>Qarang.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.2018-yil.



jarayonida faol ishtirok etishi uchun mustahkam zamin yaratildi. Shu bilan birga, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamonaviy talablari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Biz fuqarolik jamiyati qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatchiligimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir"<sup>30</sup>.

Mahalla tizimi demokratik institut ekanligi bu tizimda jamiyatni boshqarish demokratlashib borishi unda keng xalq ommasi davlatni, jamiyatni boshqarishda erkin, xolis, beg'araz, ixtiyoriy ishtirok etishi ta'minlanishi, u O'zbekistonning o'ziga xos betakror, noyob xalqchil boshqaruv instituti ekanligi e'tirof etildi va hozirgi kunda jahon davlatchiligi tajribasida tan olinmoqda. Shuningdek, jamoatchi faollar bozor munosabatlarini rivojlantirish xamda huquqiy demokratik jamiyat barpo etish bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p tadbirlarni yuzaga chiqarish ustida ishlashi zarur. Shu yo'ldagi rejalarni, "XXI asr mahallasi" konsepsiyasida ko'zda tutilgan keng qamrovli vazifalarni hayotga tadbiq etish uchun dasturlar ishlab chiqilayotgan, ustuvor yo'nalishlar aniqlab olinayotgan hozirgi paytda oqsoqollarga ko'p narsa bog'liq ekanligini unutmasligimiz lozim. Ular xalqchil, o'zini - o'zi boshqaradigan jamoat organi sifatida mahalliy davlat hokimiyati idoralari bajarayotgan ko'pgina vazifalarni adolatli ravishda uddalashga qodir ekanligini amalda isbot etdi. Ularning, ayniqsa aholining ma'lum tabaqalariga aniq yo'naltirilgan zarur ijtimoiy yordam berishdagi o'rni beqiyosdir. "Mahalla" arabcha so'zdan kelib chiqib, "shahar ichidagi shahar" ma'nosini anglatadi. Tarixchi olim Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarida bundan 1100 yil ilgari mahalla xalqning boshqaruvi ekanligini yozgan edi. "Mahalla" atamasiga Mahmud Qoshg'ariy

---

<sup>30</sup>Karimov.I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., "O'zbekiston", 1998, 32-bet

“Devonu lug‘atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarlarida ham izoh berilgan. Qadimda mahalla nafaqat ijtimoiy, balki, ma‘muriy-hududiy tuzilma tarzida ham e‘tirof etilgan. Alisher Navoiyning “Hayratul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) asarida quyidagi band uchraydi: Shaharlar otini mahalot etib, Bo‘ldi chu yuz shahar Hiri ot etib. Mahallaning “shahar ichidagi shaharcha” degan mazmuni yuqoridagi tashbehdan ko‘rinib turibdiki, o‘rta asrlarda Hiri deb atalgan Hirot shahri yuzta kichik “shaharcha”lar - mahallalardan tashkil topgan ekan.

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab davlat boshqaruvining nomarkazlashuvi natijasida o‘zini o‘zi boshqarish organlari jamiyatning asosiy institutlaridan biriga aylandi. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish (g‘arbda “mo‘nitsipal” deyiladi) deganda, u yoki bu ma‘muriy - hududiy birliklardagi aholi vakolatlarini ifodalovchi, shuningdek, saylangan organlar va ularning ma‘muriyatlari tomonidan amalga oshiriladigan, mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlarni boshqarish tushuniladi. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish demokratik tamoyillar asosidagi boshqaruvdir. Uning asosiy belgilari quyidagilardan iboratdir:

- mazkur organlarning fuqarolar tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylanishligi;
- mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zini o‘zi boshqaruvning nisbatan mustaqilligi. Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat boshqaruvining unsurlarini tashkil etadi. Shu bilan birga, ular joylardagi mahalliy davlat organlari tizimiga taalluqli bo‘lmaydi.

Mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish nazariyasi dastlab XVIII asrning ikkinchi yarmida g‘arbiy Yevropada paydo bo‘ldi. Uning tabiati va jamiyatdagi o‘rni mahalliy hokimiyatlar va jamoa o‘zini o‘zi boshqarish organlarining fuqarolar tomonidan saylanish printsipi g‘oyalari bilan bog‘liqdir. Yangi tarixning ilk davrida fuqarolar tomonidan saylanadigan o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mustaqilligi kontseptsiyasi, ularning qishloq jamoalari va shaharlardagi ishlarga rahbarlik qilishida markaziy hokimiyatga nisbatan alohidalik hamda boshqaruvning mustaqilligiga imkoniyat yaratadi. Bu organlarga davlat boshqaruvi

sohasidan tashqaridagi alohida bir bo'g'in sifatida qarash rusumga kirdi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida o'zini o'zi boshqarish organlariga quyidagi huquqiy ta'rif berildi: "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular uch yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini saylaydi. O'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan belgilanadi". Konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonunning 1-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish tushunchasi quyidagicha ta'riflandi: «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi – fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan, ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek, milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir». <sup>31</sup>

Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi tushunchasi va uning huquqiy maqomlari rivojlantirildi va ular ilg'or demokratik mamlakatlardagi huquqiy mezonlar darajasida ifodalana boshlandi. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish, mashhur olim Aleksis de Tokvilning talqinicha, "Shunday bir siyosiy institutki, u nafaqat siyosatchilar uchun, balki, umuman barcha fuqarolar uchun bir maktabdir. Bu institutga xos bo'lgan imkoniyatlar shu qadar yuksakki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroki uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. O'zini o'zi boshqarish organlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omilidir. Oxir oqibatda bu organlar faoliyati siyosiy tizimning bir butun barqarorligi va moslashuvchanligini ta'minlab beradi. Millat jamoaviy institutlarsiz ham erkin hukumat shakllantirishi mumkin. Lekin u erkinlikning haqiqiy ruhiyatiga ega bo'la olmaydi». Mustaqillik davriga kelib fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining qonuniy maqomini mustahkamlashga, ularni fuqarolik jamiyatining asosiy institutiga aylantirishga doir jiddiy islohotlar amalga

---

<sup>31</sup>«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi (yangi tahriri) qonuni. 1999-yil 14-aprel.

oshirildi. O'zbekistonda mahallalar milliy mustaqillik davriga kelibgina, o'zini o'zi boshqarish organiga aylandi. O'zbekiston Konstitutsiyasi mahalla maqomini fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organi sifatida mustahkamladi. Mamlakatda shaharcha, poselka, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari huquqiy maqomini oldilar. Jumladan, mustaqillik davrida mamlakatda 10 mingga yaqin o'zini o'zi boshqarish organlari shakllangan bo'lsa, ulardan 8142 tasini mahalla fuqarolar yig'inlari tashkil etadi. Mahalla mustaqil tashkilot sifatida qaytadan mustahkamlandi va ularning aksariyati o'zining qadimgi nomlarini va xalq o'rtasidagi obro'-e'tiborlarini qaytadan tiklab oldilar.

Konstitutsiyaviy asosdan kelib chiqib o'zini o'zi boshqarish organlari haqidagi qonunlar, huquqiy hujjatlar qabul qilingan:

1. 1993-yil 2-sentyabrda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun. Bu qonunga, yangi tahrirdagi o'zgaritirish kiritildi.

2. 1999-yil 14-aprelda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

3. O'zbekiston Respublikasining qonuni  
«Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida» (yangi tahriri). Toshkent sh., 2013 yil 22 –aprel

Birinchi prezidentimiz ta'kidlaganidek, «Hayotimizni erkinlashtirish yo'llarigi yana bir muhim yo'li-markaziy va yuqori davlat boshqaruvi idoralarivazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlaydi»<sup>32</sup>.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining dagi «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimlarida ishlovchi ayollarni ijtimoiy muhofaza qilishni kuchaytirish to'g'risida»gi farmoni. 7 dekabr 2004 yil.

5. 2004 yil 29 aprelda «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqol) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi qonun qabul qilingan.

---

<sup>32</sup>I.A.Karimov Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasi.«O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari»ga doir ma'ruzasi .Xalq so'zi.2002 yil 30 avgust

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 fevral 2017 yildagi "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4944-sonli farmoni.

7., "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi qonun.2018-yil.Oktyabr.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarishning demokratik tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Demokratiya, oshkoralik, fikrlar xilma-xilligi tamoyili.
- Vorislik tamoyili.
- Ijtimoiy munosabatlarni demokratlashtirish.
- Yuksak ma'naviyat tamoyili.
- Mahalla xavfsizligini ta'minlash tamoyili.
- Fuqaro yig'ini raisi (oqsoqoli) va maslahatchilarining mas'uliyatini his qilish tamoyili.
- Ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat, ijtimoiy kafolat tamoyili (jamoatchilik va o'zaro yordam).
- Kengash, mashvarat (maslahatlashish) tamoyili.
- Insonparvarlik.
- Mustaqillik va h.k.

Bu boshqaruvlar sifat va miqdor ko'rsatkichlari orqali amalga oshiriladi.Respublika miqyosida "Oqsoqollar kengashi"ning tuzilishi jahon tajribasida yangilikdir. Bu bilan O'zbekiston dunyodagi davlat boshqaruvi sohasida chinakam xalqchil shaklidagi o'ziga xos milliy davlat tuzilmasining asoschisi bo'lib qolishidan darakdir. Demak, mustaqillik yillarida yuqoridagi qonunlar bilan birga mustaqillik yillarida mahalla tarixiy va rivojlangan mamlakatlardagi tushunchadaaniq belgilangan ijtimoiy-demografik, madaniy-ma'naviy va hududiy-ma'muriy birlik sifatidagi maqomga erishdi. U o'z hududidagi fuqarolar o'rtasida an'analar va urf-odatlar, insoniy, xo'jalik, huquqiy munosabatlar birligini tashkil etgani holda fuqarolarning o'zaro ijtimoiy munosabatlarini bog'lab turish vositasiga aylandi. Mustaqillikning ilk davridan boshlab O'zbekiston

Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov mahallalarni fuqarolik jamiyatining asosi deb, bildi va ularni har tomonlama rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1995-yildayoq shunday fikrni bildirgan edi: "Ma'lumki, asrlar mobaynida mahallalarda ko'pdan-ko'p hayotiy muammolar o'z echimini topib keladi. To'y-ma'rakalar ham, hayitu hasharlar ham mahalla ahlisiz o'tmaydi. Mahallalarda siyosiy, iqtisodiy va boshqa masalalarga doir jamoatchilik fikri shakllanadi. Bu esa xalqimizning turmush tarzi, ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan tafakkur tarzidir. Binobarin, hayotning o'zi mahallalarni rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlashni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ko'p qirrali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi lozim"<sup>33</sup>.

Hozirgi davrda mahalla yo'nalishida olib borilayotgan ishlar ikkita yo'nalishni nazarda tutadi.

**Birinchi,** ma'naviy vazifa bo'lib, u xalqimizning ming yillik tarixidagi noyob, eng aziz an'analarni, qadriyatlarni qaytadan tiklash va rivojlantirishdan iborat.

**Ikkinchi,** siyosiy vazifa bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning mahalla institutini bugungi zamon talablariga muvofiq tarzda tiklash, shuningdek, viloyat, shahar, tuman hokimliklari zimmasiga yuklangan ko'pchilik vazifa va huquqlarni fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlariga, ya'ni mahallalarga berib, ular maqomini joy-joyiga qo'yib, shu tariqa jamiyatimiz hayotini demokratiyalashda yangi va juda muhim imkoniyatlarga erishishdan iboratdir.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimov ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasidagi ma'ruzasida o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyat va davlat boshqaruvidagi o'rnini ko'tarishning muhim bosqichini boshlashning asosiy yo'nalishi bo'lgan quyidagi fikrni bildirdi: "Hayotimizni

---

<sup>33</sup> Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1996 y

erkinlashtirish yoʻnalishlarining yana bir muhim yoʻli - markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich oʻtkazib borishni taʼminlashdir<sup>34</sup>. Albatta, davlat tomonidan mahallalarga katta boshqaruv vakolatlarini berishda avvalo, ularning aholi faolligini oshirishdagi oʻrnini yuksaltirish koʻzda tutildi. Chunki, mahalla fuqarolar yigʻinlarida etarlicha huquq boʻlmasa, ular oʻzini oʻzi boshqarish funksiyalarini bajarish qobiliyatiga ega boʻla olmas edilar. Shuningdek, mahallalarning aholi va davlat oldida masʼuliyat sezishlari uchun ham avvalo keng huquqlarga ega boʻlishlari lozim edi.

Shu bilan birga, koʻplab qonunlar loyihalari, konstitutsiyaga kiritiladigan qoʻshimcha va oʻzgarishlarni oʻzida ifodalagan umumxalq referendumlariga tayyorgarlik koʻrish va oʻtkazish avvalo mahalla ahli va faollari tomonidan muhokama qilinmoqda va qoʻllab-quvvatlanmoqda. Boshqacha aytganda, mahallalar siyosiy qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini faollashtirishning muhim vositasi ekanligini hayotning oʻzi isbotlab berdi. Mamlakat siyosiy hayotida fuqarolarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini taʼminlab beruvchi asosiy boʻgʻin - bu mahalla fuqarolar yigʻinlaridir. Shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish qobiliyatiga ega boʻlgan birdan-bir boshqaruv tizimi ham mahalla fuqarolar yigʻinlaridir.

Respublika "Mahalla" xayriya jamgʻarmasi, uning viloyat, shahar, tuman boʻlimlari bilan hokimliklar hamkorligida har yili "Eng yaxshi mahalla", "Eng ibratli oqsoqol", "Mahalla jonkuyari", "Eng tadbirkor mahalla oqsoqoli" shiori ostida muttasil koʻrik-tanlovlar oʻtkazib kelindi. Koʻrik-tanlovlar gʻoliblari har yili obroʻli komissiyalar tomonidan maxsus nishonlar, qimmatli esdalik sovgʻalari bilan taqdirlanadilar. Mazkur tadbirlar mahallalarni obodonlashtirish, ozoda saqlash, ayniqsa yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etdi.

---

<sup>34</sup>Karimov I.A. Biz tanlagan yoʻl demokratik taraqqiyot va maʼrifiy dunyo bilan hamkorlik yoʻli. T.II. -T.: Oʻzbekiston, 2003. 29-b.

Mustaqillik davrida mahallalar fuqarolar yigʻinlari oqsoqollari, “Mahalla” jamgʻarmasi va uning mahalliy tashkilotlari rahbarlarining sifat tarkibi yaxshilanib bordi.

Huquqiy demokratik davlatda saylov qonunlari va uni oʻtkazish muhim oʻrinni egallaydi. Buning yorqin isbotini “Fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish” organlariga saylov oʻtkazish ham istisno emas. Mustaqillik davrida oʻzini oʻzi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida isloh etish oʻzining samaralarini berdi. Mahallalar mamlakatdagi aholini oʻzini oʻzi boshqarish jarayonlarida ishtirok etishlari, qarorlar qabul qilishda fuqarolar xohish va istaklarini eʼtiborga olishga imkoniyatlar yaratishi bilan fuqarolik jamiyati institutiga aylanib bormoqda. Shuningdek, hozirgi davrga kelib, davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy himoyaga muxtoj oilalarni belgilash kabi vakolatlari ham deyarli mahallalarga berilgan.

2002 yil 29 avgutda Oliy majlisning 9-sessiyasida Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Oʻzbekistonda demokratik oʻzgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yoʻnalishlari” ga bagʻishlangan maʼruzasida ham “Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari” tamoyilini amalda hayotga joriy etish zarurligini uqtirish bilan birgan “Adolat –qonun ustuvorligida” degan tamoyilni izohlab berdi. Bunda xayotimizni erkinlashtirish, yaʼni markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich oʻtkaza borishni taʼminlash zarur degan edi. Haqiqatdan ham ikki palatali parlamentimizning shakllantirilishi bilan birga hokimiyat organlarining ayrim funktsiyalari quyi fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlariga oʻtkazilayotganligi uning yaqqol ifodasidir.

Texas universitetining tarix kafedrasi professori Jeyms Vonning (AQSh) taʼkidlashicha, dunyoda hanuzgacha fuqarolik jamiyati xususida yaxlit tushuncha yoʻq. Yevropa va Amerikada dastlab kuchli fuqarolik institutlari shakllangan boʻlsa, sharqning aksariyat mamlakatlarida avval kuchli davlat institutlari tashkil etilib, keyinchalik ular fuqarolik tuzilmalarini shakllantirib, qoʻllab-quvvatladi.



Amerikalik ekspertning fikriga ko‘ra, kelajakda iqtisodiy rivojlanish va jamiyat turmush darajasini oshirish uchun shart-sharoit yaratadigan globallashtirish jarayonlarini chuqurlashtirishda butun dunyoda milliy mushtaraklikka, davlat suverenitetiga rahna soluvchi tahdidlar paydo bo‘ladi. J.Von bunday sharoitda o‘zining samaradorligini namoyon qilgan mahalla instituti milliy an‘ana va madaniyatni asrab-avaylash, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda muhim rol o‘ynashi mumkin, deb hisoblaydi. “Fuqarolarning bunday o‘zini o‘zi boshqarish organlarini rivojlantirish g‘arb davlatlari uchun ham katta ahamiyatga ega. Biz ularning faoliyatini o‘rganishimiz va o‘zbekiston tajribasini qo‘llashimiz lozim”, – deb ta‘kidladi ekspert.

“Mahalla – o‘zbek xalqining ulkan boyligi bo‘lib, ma‘naviy qadriyatlarni asrab-avaylash, barkamol yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda, – dedi Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoni o‘rganish instituti yetakchi mutaxassisi Chjao Xueyun. – Ushbu o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati samarasida jamiyat mustahkamlanmoqda, demokratiya rivojlanmoqda. Ular, haqiqatdan ham, odamlarga yaxshi yashash, biznes, shu jumladan, oilaviy biznes bilan shug‘ullanishga ko‘maklashmoqda. Boshqa mamlakatlar uchun mahalla faoliyati katta va muhim tajriba hisoblanadi. Prezidentingiz Islom Karimovning fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasida uzoqni ko‘zlab yuritayotgan siyosati g‘oyat samaralidir. Men davlatingiz rahbarining bu boradagi yangi qonunchilik tashabbuslarini to‘la qo‘llab-quvvatlayman”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 3 - fevraldagi “Maxalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida ushbu tuzilmaning huquqiy asosi, mahallani aholiga eng yaqin va xalqchan tuzilmaga aylantirish, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini yanada rivojlantirish bilan bog‘liq ustuvor vazifalar belgilandi.

”Mahallalar o‘z zimmasidagi vazifalarni samarali bajarishi uchun huquqiy asoslar bilan birga, yetarli shart-sharoitlarga ham ega bo‘lmog‘i lozim”, dedi Sh.

Mirziyoyev<sup>35</sup>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni samarali hal qilishdagi rolini oshirish, fuqarolar yig‘inlarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqini ro‘yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o‘zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni belgilab berdi. Xususan, farmonda mahalla institutini yanada takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o‘rni va rolini yanada kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko‘makdoshiga aylantirish;

- jamiyatimizda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;

- yoshlarni ma‘naviy boy va jismonan sog‘lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta‘minlash, yosh avlodni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasida fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorligini mustahkamlash;

- jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlashda, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo‘llash amaliyotini ta‘minlash. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashiga yuridik shaxs maqomini bergan

---

<sup>35</sup>O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Chilonzor tumanidagi "Katta Xirmontepa" va "Yakkatut" mahalla fuqarolar yig‘inlarida. TOSHKENT, 13 aprel.

holda uni fuqarolar yig'inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish nazarda tutilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlarda tuzilgan kengashlarni esa Respublika kengashining tarkibiy tuzilmalari sifatida tashkil etish belgilandi. Kengashlarning nufuzi va maqomini oshirish, joylarda aholi tomonidan ko'tarilayotgan masalalarni ijro hokimiyati organlarining rahbarlari e'tiboriga yetkazish va mazkur masalalarni hal etish bo'yicha ularning bevosita ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar va shaharlar hokimlari zimmasiga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilish vazifasi yuklatildi.

Kengashlar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali ta'minlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida Respublika kengashi va hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinbosarlari bir vaqtning o'zida "Mahalla" fondining tegishincha respublika boshqaruvi hamda hududiy bo'lim va bo'linmalariga raislik qilishlari haqidagi tashabbus qo'llab-quvvatlandi. Shuningdek, farmonda yoshlarni ona vatanga muhabbat, xalqimizning ko'p asrlik an'alariga hurmat ruhida tarbiyalash, mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash borasida joylarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida Respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinbosari, shuningdek Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinbosarlari lavozimlarini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida esa jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan mahalla fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosari – yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimini joriy etildi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali

ijrosini ta'minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig'ini kengashi tarkibiga fuqarolar yig'ini raisining o'rinbosarlarini (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarini), hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta'lim muassasalari va qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o'z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ga hisobot taqdim qilishlari amaliyotini joriy etish belgilab qo'yildi. Qayd etilgan asosiy vazifalar va yangi normalarni hayotga tatbiq etish uchun farmon bilan kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirish hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash borasida 37 ta aniq tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Farmonni ijro etish doirasida "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari va bir qator boshqa qonun hujjatlariga zarur o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, mutasaddi vazirlik, idora va tashkilotlar zimmasiga fuqarolar yig'inlarining bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari hamda moliya va sog'liqni saqlash organlari bilan o'zaro hamkorligini nazarda tutadigan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish vazifasi yuklandi. Bundan tashqari, mahalla fuqarolar yig'inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo'yicha mustaqilligini ta'minlash, o'zini o'zi boshqarish tizimida ortiqcha bo'g'inlardan voz kechish maqsadida tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarini mahalla fuqarolar yig'inlariga birlashtirish va bo'lish yo'li bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalar sport maydonchalari, maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini tashkil etish maqsadida 2017-2021-yillarga mo'ljallangan hududiy dasturlar ishlab chiqildi. Shuningdek, 2018-yilning 1-dekabriga qadar tumanlar va shaharlar markazlarida "Mahalla markazi" majmualari binolarini namunaviy loyihalar asosida barpo etishga

qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning amalga oshirilishiga munosib hissa qo'shgan tashabbuskor fuqarolar va jamoatchilik tuzilmalari vakillariga taqdim etiladigan "Mahalla iftixori" ko'krak nishonini ta'sis etildi.

Demak, mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarining eng muhim bo'g'ini bo'lmish mahallaning tashkiliy – huquqiy jihatdan mustahkam himoya qilinishi, modddiy texnik bazasining takomillashtirilishi mahallaning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini yanada oshiradi. Xususan, prezidentimizning "Maxalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da mahallalar zimmasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Eng muhimi, farmonda belgilab berilgan ustuvor vazifalarning o'z vaqtida va yuksak samaradorlik bilan hayotga tatbiq etilishi, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, mahallalarning joylarda xalqning maslakdoshi va ko'makdoshiga, ta'bir joiz bo'lsa, "adolat tarozisi"ga aylanishini ta'minlaydi. Muxtasar aytganda, bugungi kunda mahalla ozod va obod vatan barpo etish, aholi farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni amalga oshirishda mustahkam tayanch bo'lib xizmat qilmoqda. Binobarin, uning jamoatchilik nazoratini olib borishdagi imkoniyatini kuchaytirish, shunga mos ravishda qonunchilik asosini yanada takomillashtirish kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **2.3. Ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik boshqaruvidagi vazifalari.**

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldagi 2017 – 2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" haqidagi farmonini hayotga tatbiq etilishiga erishish, avvalo, fuqarolik jamiyatining iqtisodiy negizini yaratish, mamlakat siyosiy hayotida chinakam ko'ppartiyaviylik muhitini qaror toptirish, nodavlat tuzilmalar, jamoat tashkilotlari va o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini takomillashtirish, sud-huquq va ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni jadallashtirish, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirish, axborot maydonida shakli, adadi, ko'lami hamda mavzu yo'nalishidan qat'i nazar, nashrlararo raqobat muhitini shakllantirish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki axborot vositalari fuqarlarni sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan o'z vaqtida xabardor qilishi, mamlakatda va dunyoda yuz berayotgan jarayonlarga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishi, mavjud qonunlar va ijtimoiy axloq me'yorlariga zid bo'lgan xatti-harakatlarni fosh etishi, xullas, jamiyat va hokimiyat o'rtasida o'ziga xos ko'priklar vazifasini o'tashi, bir so'z bilan aytganda, "to'rtinchi hokimiyat" degan nomni oqlashi kerak.

Mamlakatimizning jahon iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga integratsiyalashuvi yurtimizda erkin demokratik jamiyat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada jadallashtirish, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinlashtirish, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'бири bilan aytganda, "islohotlarning ochiqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy"<sup>36</sup> qilishni, "...ommaviy axborot vositalarini odamlar o'z fikr va g'oyalarini, sodir bo'layotgan voqealarga munosabati va pozitsiyasini erkin ifoda etadigan minbarga"<sup>37</sup> aylantirishni taqozo etadi. Birinchi Prezidentimizning 2005-yil 29-yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik

---

<sup>36</sup>Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. -T.: "O'zbekiston", 2003. 23-bet.

<sup>37</sup>Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi //«Xalq so'zi», 2010 yil 13 noyabr.

palatasi va Senatining qo‘shma majlisida so‘zlagan “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” nomli ma‘ruzasida ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, ular faoliyatida demokratik andozalarni joriy etish borasida aniq va izchil choralarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab berildi. Ushbu ma‘ruzada avvalambor ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini mustahkamlash, birinchi galda, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar, shu sohada oid boshqa me‘yoriy hujjatlarga zarur qo‘shimchalar va o‘zgartirish kiritish, bir so‘z bilan aytganda, davr talablarini e‘tiborga olgan holda ommaviy axborot vositalarining erkin va mustaqil faoliyat yuritishi uchun barcha zarur huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish borasida muhim g‘oya, taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Ta‘kidlash joizki, o‘tgan davr mobaynida, ayniqsa mustaqil taraqqiyot yo‘limizning ikkinchi bosqichida (2001-2010 yy.) mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining samarali va erkin faoliyat yuritishi uchun zarur huquqiy asos, tegishli qonunlar (masalan, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”, “Noshirlik faoliyati to‘g‘risida”, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”, “Reklama to‘g‘risida” kabi) yaratilib, ularni takomillashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi (masalan, birgina “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonunga bir necha bor murojaat etilib, uning yangi tahrirlariga qator qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi), senzura bekor qilindi, matbuotning erkin, mustaqil faoliyat yuritishi, uning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash uchun barcha shart-sharoit yaratildi.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa so‘nggi o‘n yilda matbuot sohasini erkinlashtirish va demokratlashtirish, uning huquqiy va iqtisodiy asoslarining mustahkamlanishi natijasida bu borada yuz bergan sezilarli o‘zgarishlar, masalan, keyingi o‘n yilda bosma ommaviy axborot vositalari soni 1,5 barobar, elektron ommaviy axborot vositalarining soni esa 7 barobar ko‘payib, bugungi kunda

ularning umumiy soni qariyb 1200 taga yetgani(1991 yilda ularning soni atigi 351 ta bo'lgan) quvontirmasligi mumkin emas. Ammo konsepsiyasida mustaqillik davrida erishilgan ulkan yutuq va natijalarni sarhisob qilib, shu bilan birga, ularga maxliyo bo'lib qolmaslik, xotirjamlik kayfiyatiga berilmaslikka da'vat etiladi, globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi zamonda dunyoda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonida egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholash, hayot talablariga javob berish, davr bilan hamqadam bo'lish, istiqboldagi ustuvor vazifalarimizni aniq-tiniq belgilab olish va ularni amalga oshirish bo'yicha izchil choralarini ko'rish lozimligini ta'kidlanadi. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatida ommaviy axborot vositalari, jamoat fikrining o'ziga xos ko'zgusi sifatida, aholi turli guruh va toifalarining kayfiyati, talab-ehtiyojlari to'g'risida hokimiyat idoralari xabardor qilishi, o'z navbatida, uning faoliyatiga kishilarning ham ijobiy, ham tanqidiy munosabatini bildirib turishi, mavjud muammolarni har tomonlama xolisona o'rganib, jamoatchilik e'tiboriga havola etishi lozim.

Buning uchun, **birinchidan**, mamlakat hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ommaviy axborot vositalari faoliyatida ham qonun ustuvorligiga erishish, matbuotning chinakam iqtisodiy erkinligini ta'minlash va eng muhimi, yurt va millat tashvishi bilan yashaydigan, voqea-hodisalarga to'g'ri baho bera oladigan, o'z nuqtai nazariga ega bo'lgan hamda muayyan sohaga ixtisoslashgan yuksak malakali jurnalist kadrlarni tayyorlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarur. Albatta, jamiyat hayotini erkinlash-tirish jarayonida faol ishtirok etish uchun, birinchi galda, jurnalistning o'zi erkin fikrli bo'lmog'i, haq-huquq va burch-mas'uliyatini teran anglab etmog'i lozim.

**Ikkinchidan**, taraqqiyotimizning bugungi bosqichida ommaviy axborot vositalari va davlat idoralari, jurnalist va ma'muriy organlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini aniq-tiniq belgilash, jurnalist va matbuot xodimining erkin faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va bartaraf etish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki "bu o'rinda gap ommaviy axborot vositalari va davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi munosabatlarning



ustuvor jihatlarini to'g'ri belgilash, jumladan, ommaviy axborot vositalari faoliyati ustidan nazorat qilishning mexanizmlarini, axborot manbalarining yopiqligini, shuningdek, tahriri-yatlarga hokimiyat organlari va ma'muriy tuzilmalar tomonidan bo'layotgan ma'lum darajada bosimlarni bartaraf qilish bilan bog'liq muammoli masalalarni hal etish haqida bormoqda"<sup>38</sup>.

**Uchinchi**dan, respublika "Jurnalistlar ijodiy uyushmasi" tegishli ilmiy muassasalar (masalan, "Ijtimoiy fikr" markazi) ishtirokida axborot vositalari vakillari orasida uzluksiz sotsiologik monitoring tizimi yo'lga qo'yilsa, nazarimizda, ma'lumot olish imkoniyatlari, matbuotning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash mexanizmlari, jurnalist axloqi va uning asosiy tamoyillari kabi ko'plab masalalarga oydinlik kiritish imkoni tug'ilardi. Mazkur monitoring natijasida to'plangan ilmiy ma'lumotlar ommaviy axborot vositalaridagina emas, umuman, mamlakat hayotining barcha sohalarida demokratik erkinliklarni qaror toptirish, birinchi galda "Ommaviy axborot vositalarini zamon talablari asosida rivojlantirish, matbuot va so'z erkinligi prinsiplarini amalda ta'minlashga erishish, matbuotda chinakam tanqid ruhini kuchaytirish", bu sohada liberallashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, axborot maydonida chinakam raqobatni vujudga keltirish, jurnalistlar uchun erkin faoliyat muhitini yaratish, nodavlat va jamoat birlashmalari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan samarali fikr-mulohaza va takliflar ishlab chiqish imkoniyatini yaratgan bo'lar edi"<sup>39</sup>.

**To'rtinchi**dan, keyingi vaqtda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar, tashkilot va muassasalar hamda xususiy sektor sohasida taraqqiy etgan davlatlar tajribasida sinalgan korporativ boshqaruv tizimini joriy etish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu ma'noda, jurnalistlar haq-huquqlari hamda manfaatlarini himoya qiladigan, bu soha vakillari faoliyatining kasb odobi me'yori va tamoyillarini, umuman, ommaviy axborot vositalari istiqbolini belgilab beradigan tuzilma — "O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi"ning faoliyatini

---

<sup>38</sup>Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi //«Xalq so'zi», 2010 yil 13 noyabr.

<sup>39</sup>Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008. – 135-b.

kuchaytirish, matbuotni erkinlashtirish jarayonidagi oʻrni va ahamiyatini oshirish, rivojlangan davlatlarning bu boradagi tajribasini oʻrganish asosida uning ijobiy jihatlarini ommaviy axborot vositalari faoliyatiga tatbiq etish, matbuotning nodavlat tarmoqlari: uyushma, jamgʻarma va assotsiatsiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish talab etiladi.

**Beshinchidan**, jurnalistlar va matbuot xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini davr talablari, rivojlangan davlatlarning asosida tashkil etish, bu borada uzluksiz faoliyat yuritadigan tizimni shakllantirish yurtimizda demokratik qadriyatlarning qaror topishi, chinakam erkin matbuotning vujudga kelishi, yuqorida tilga olingan masalalarning yechilishiga munosib hissa qoʻshishi shubhasizdir.

**Oltinchidan**, mustaqillik yillarida mamlakatimizda mualliflik huquqi hamda intellektual mulkni himoya qilishning huquqiy asoslari yaratilganiga qaramay, bugungi kunga kelib uning kafolat va mexanizmlarini takomillashtirishga jiddiy ehtiyoj tugʻilmoqda. Gap shundaki, jahondagi barcha rivojlangan demokratik davlatlarda mualliflik huquqi va intellektual mulk himoyasiga qatʻiy rioya etiladi, bu boradagi vaziyat doimiy nazorat etib boriladi. Intellektual mulk qaysi sohaga tegishli boʻlishidan qatʻi nazar, u ilmiy yoki badiiy asar boʻladimi, olimning kashfiyoti yoki muhandisning yangi texnik ishlanmasi boʻladimi, musiqa asari yoki jurnalistning ijod mahsuli boʻladimi — barcha-barchasi ishonchli himoya qilinishi zarur. Shu maʼnoda, Prezident konsepsiyasida ommaviy axborot vositalari erkinligi va mustaqilligini yanada mustahkamlash, mualliflik huquqi va intellektual mulkni himoya qilishning huquqiy kafolatlari va mexanizmlarini kuchaytirish, axborot sohasiga bozor mexanizmlarini joriy qilish bilan bogʻliq ekanini taʼkidlab, birinchi galda, “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi toʻgʻrisida”, “Teleradioeshittirishlar toʻgʻrisida”, “Ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy asoslari toʻgʻrisida”, “Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonunlarni ishlab chiqish va joriy etish, shuningdek, “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari toʻgʻrisida”gi va boshqa bir qator qonun

hujjatlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish taklifi beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy asoslari deganda, avvalo, matbuotning faoliyat yuritishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar tushuniladi. Bu borada matbuotning iqtisodiy asoslarini mustahkamlash, erkin bozor sharoitida ishlash omillarini kuchaytirish, mustaqil nashrlar faoliyati uchun zarur shart-sharoit yaratishni taqozo etmoqda. Ushbu masalaga ham yuqorida ta'kidlangan ma'ruzada alohida urg'u beriladi: "Ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy erkinligini ta'minlash kerak. Bu ularning mustaqil faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lishi lozim. Biz matbuot va axborot erkinligining kafolatini bozor munosabatlari, axborot maydonida sog'lom raqobat tamoyillarining rivojlanishida ko'ramiz". Bugun dunyo axborot asriga kirib ulgurdi. Eng taraqqiy etgan davlatlarning mavqei, salohiyati o'sha yurtlarda ko'plab omillar bilan bunga OAV ning nechog'li rivojlangani bilan belgilanmoqda. Taraqqiyotning bosh belgisi esa jamiyatning axborotlashganligida o'z ifodasini topmokda. Yaqin-yaqinlargacha axborotlashuv jarayonlari faqat ommaviy axborot vositalarining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan edi, xolos. Endi esa manzara butkul o'zgacha. Endilikda axborot texnologiyalari shu qadar rang-barang tus oldiki, kechagi o'lchamlar, mezonlar, tushunchalar, imkoniyat va vositalarni tubdan yangilash zarurati ko'ndalang bo'lmoqda. Kompyuter texnikasi, internet tizimi, telekommunikatsiya imkoniyatlari tasavvurimizdagi ommaviy axborot vositasi degan tushunchani tamoman o'zgartirib yubormoqda.

Bugungi kunda axborotlashgan jamiyat barpo etishning eng nozik muammolaridan biri — axborot xavfsizligi masalasi nechog'li jiddiy masalaga aylanib borayotgani ma'lum. Biz O'zbekistonning ilmiy, madaniy va boshqa sohalarda dunyo miqyosida tobora keng e'tirof etilayotganidan faxrlanamiz, ayni vaqtda, shuni ham aytish kerakki, "zamonaviy integratsiya" tushunchasi dunyo axborot makonidan mustahkam o'rin egallashni taqozo etadi. Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari soni misli ko'rilmagan darajada oshdi. 1991 yilda O'zbekistonda 351 ta ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritgan bo'lsa, hozirgi

vaqtda ularning soni 10000ga yaqinlashdi. 1991 yilda respublikada mavjud bo'lgan barcha bosma ommaviy axborot vositalari, ya'ni 340 gazeta, 54 ta jurnal va 1 ta teleradiokanalning muassislari davlat tashkilotlari edi. Bugungi kunga kelib, gazetalar 697 taga, jurnallar 235 taga etdi. 1991 yilda faqat bitta teleradiokompaniya tashkil etilgan bo'lsa, hozir mamlakatimizda 75 dan ziyod teleradio studiya faoliyat yuritmoqda. 2010 yil oxiriga kelib davlat ro'yxatiga olingan ommaviy axborot vositalarining 602 tasi, ya'ni 52 foizi davlatga qarashli bo'lmagan OAV hisoblanadi. O'zbekistonda amaldagi qonunga ko'ra 124ta veb-sayt ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatga olingan bo'lib, ularning barchasi xususiydir.

Bugungi kunda ularning aksariyati nodavlat va xususiy, reklama yo'nalishida faoliyat yuritmoqda. Bundan tashqari, bir qancha nashriyot va matbuot uylari ham tashkil etildi. Qator axborot agentliklari, internet tarmoqlari faoliyati mamlakatimiz aholisi uchun axborot manbai sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz axborot maydonida mustaqillik sharofati bilan fikrlar xilma-xilligi qaror topib bormoqda. Masalan, yurtimizda faoliyat yuritayotgan har bir siyosiy partiyalar o'z nashriga ega bo'ldi. Bundan tashqari, iqtisodiyot, bank tizimidagi o'zgarishlarni yoritib borayotgan nashrlar soni ortib bormoqsa. SHuningdek, diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi hamda keng ommaga yo'naltirilgan tijorat nashrlari ham paydo bo'ldi.

Yuqorida qayd etilgan risolaga tayanib bu masalani o'rganish mustaqillik davrida OAV sohasidagi asosiy o'zgarishlar quyidagilarda namoyon bo'layotganidan dalolat beradi:

- ommaviy axborot vositalari milliy istiqlol mafkurasi asosida shakllanib, rivojlanib bormokda;

- xalqimizning milliy qadriyatlarini, urf-odat va an'analari, buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy-ma'naviy merosni o'rganish va targ'ibetish tabora kuchayib va ko'lami kengaymoqda;

- milliy ma'naviyat, ta'lim-tarbiya tizimiga oid maqola, xabar, ko'rsatuv va eshittirishlar ko'paymoqda;

- nodavlat tele va radio studiyalar, xususiy va tijorat-reklamanashlari rivojlanmoqda;

-jahon tillarida eshittirishlar tayyorlash va efirga uzatish imkoniyati kengaymoqda;

- axborot maydonida shakli, adadi, yoʻnalishidan qatʼiy nazar, raqobat muhiti shakllanmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning IX sessiyasidagi maʼruzasida ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdagi eng muhim ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida belgilanishi va bu jarayonning fuqarolik jamiyatining uzviy tarkibiy qismiga aylanishi lozimligi alohida taʼkidlanishi Oʻzbekistonda OAVni "toʻrtinchi hokimiyat" sifatida eʼtirof etilishini anglatadi<sup>40</sup>.

OAV fuqarolik jamiyatida mustaqil institut sifatida faoliyat yuritgan ekan, bu jarayonda ular hokimiyatni tashkil etishda ishtirok etadigan siyosiy subʼektlar — davlat, uning qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlari, siyosiy partiyalar va boshqa ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar bilan bevosita munosabatda boʻladi. OAVning jamiyat hayotida tutgan oʻrni, davlat va jamiyatga nisbatan taʼsir doirasi ana shu munosabatlar zahirida shakllanadi. Boshqacha aytganda, OAV fuqarolik jamiyatining eng muhim institutlaridan biridir.

OAVning jamiyat hayotining yashovchanligini taʼminlovchi asosiy omillardan biri, bu — turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlarining oʻzaro manfaatlari, ziddiyatlari va bu ziddiyatlarning oʻzaro muvofiqlashuvidir. Demokratik jamiyatda bu ziddiyatlar goh oshkora, goh yashirin holatda roʻy bersa, totalitar yoki avtoritar rejimdagi jamiyatda bu ziddiyatlar, asosan, yashirin tarzda kechadi. Demokratik jamiyatlarda oʻzaro manfaatlar kurashi koʻpincha ommaviy axborot vositalari ishtirokida kechadigan ijtimoiy jarayonlar boʻlib, ular jamiyat rivojlanishini taʼminlovchi ijobiy hodisadir. Jamiyatdagi oʻzaro ziddiyatlarning konstruktiv hal

---

<sup>40</sup>Karimov I.A. Oʻzbekistonda demokratik oʻzgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yoʻnalishlari. // Biz tanlagan yoʻl - demokratik taraqqiyot vamaʼrifiy dunyo bilan hamkorlik yoʻli. 11-j. -T.: "Oʻzbekiston", 2003. 23-26-betlar.

etilishi jamiyatning madaniyatga erishganlik darajasini ham belgilab beradi. Jamiyatdagi turli manfaatlarining o‘zaro ziddiyatlarni muvofiqlashtirish, kelishtirish yoki o‘zaro muvozanatlashtirish jarayonlarida OAVning o‘rni beqiyosdir.

“Rivojlangan demokratik jamiyatlarda ommaviy axborot vositalari ko‘pincha siyosiy partiyalar yoki ma’lum ijtimoiy guruhlar manfaatlarini himoya qilishga intilishi, ma’lum ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazarlarni yoqlashga harakat qilishi tabiiy bir holga aylandi. Ko‘pincha OAV o‘ziga tarafdor bo‘lgan siyosiy partiya yoki ijtimoiy guruhlar manfaatlarini himoya qilish doirasida cheklanib qolmasdan, umumjamiyat manfaatlariga ham xizmat qiladi, o‘z o‘quvchilari e’tiborini jalb etishga intiladi. Davlat siyosatini targ‘ib etuvchi, unga xayrixoh bo‘lgan OAV davlat organlarining rasmiy nashri hisoblanadi”<sup>41</sup>.

Matbuot konferensiyalari davlat siyosatini keng jamoatchilikka etkazishda, jamoatchilik fikrini shu siyosatga yaqinlashtirishda, jamiyatning barqarorligini ta’minlashda davlat rahbarlari uchun eng qulay vositadir. Jurnalistlar uchun bu kabi anjumanlar siyosiy jarayonlarni tahlil qilishda manba vazifasini o‘taydi.

Ommaviy axborot vositalari bilan siyosiy institutlar munosabatlarning o‘zaro manfaatli hamkorligi shartlaridan yana biri jamoatchilik fikrining jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etishiga erishishdan iboratdir. Siyosiy qarorlar qabul qilinishida fuqarolarning keng ishtiroki va jamoatchilik fikriga ustuvor tarzda ahamiyat berilgandagina OAVga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi, matbuotning ta’sir doirasi ortadi. Va tabiiyki, siyosiy institutlar o‘z dasturlari va g‘oyalarini hayotga tatbiq etishda ommaviy axborot vositalariga murojaat etadilar. Muhimi, siyosiy elita OAVda ishtirok etishga intiladi va ular vositasida jamoatchilik fikriga ta’sir o‘tkazishdan manfaatdordir. Bu kabi o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish uchun fuqarolik jamiyati har tomonlama shart-sharoitlar yaratib berishi mumkin. OAV haqiqiy "to‘rtinchi hokimiyat" sifatida aynan fuqarolik jamiyatidagina mavjud bo‘ladi va ana shunday jamiyat yaratgan muhitdagina matbuot jamoatchilik fikrini shakllantirish va unga ta’sir ko‘rsata olishga qobil bo‘lgan kuchga aylanadi.

---

<sup>41</sup>Политические коммуникации: Учебное пособие. — М.: Аспект пресс, 2004. —С.7-3.

OAV o‘z ijtimoiy nuqtai nazarining ochiq-oydinligi, qat’iyligi bilangina jamiyatda nufuzli mavqega egabo‘lishi mumkin. SHu o‘rinda OAVning xalq nazoratining engsinalgan va munosib vositasi ekanligini ta’kidlash lozim.

Hokimiyatning asosiy belgilaridan biri — o‘z rejalarini amalga oshirish yo‘lida odamlarga yo‘lboshchilik qilish, yo‘naltirish, boshqarish ekanini nazarda tutsak, ommaviy axborot vositalari ham ma’lum ma’noda shu vazifani amalga oshirishga hissa qo‘shadi. Shuningdek, OAV — axborot va yangilik ulashish manbai hamdir. Hozirgi davrdagi fuqarolik jamiyati qurish jarayonlarida axborotga ehtiyoj tobora kuchayib bormoqda. Jamiyat hayoti va faoliyati axborotga asoslangan va tayangan holda kechmoqda. Shuningdek, axborot ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida ham o‘z mavqeiga ega. OAVning jamiyatda tutgan o‘rnining oshib borishi bilan “axborot asri”ga aylangan hozirgi davrda axborotning ustuvorlik mavqei oshib boradi, axborot vositasida jamiyatni boshqarish, uni rivojlantirish imkoniyatlari yaratiladi. Matbuotning qudrati ham aynan shu — so‘z va axborot vositasida fuqarolik jamiyatiga ma’naviy-g‘oyaviy ta’sirini o‘tkaza olish qobiliyatiga egaligida.

OAVning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o‘rni ham beqiyos o‘sdi. Ma’lumki, jamoatchilik fikri, bu — bir tomondan, jamiyat hayotining hamma darajalarida qonunlashtirilgan, tan olingan qarorlar qabul qilish mexanizmlaridan biri bo‘lib, hokimiyatni amalga oshirishda barqaror va samarali ishtirok etib kelayotgan siyosiy institutdir. Ikkinchi tomondan esa, u turli-tuman ijtimoiy birliklarning u yoki bu voqea-hodisalarga nisbatan bildirgan umumiy fikrlari va baholashlaridir.

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda jamoatchilik fikrini bildirishning odatdagi oqimlari va shakllari quyidagilardan iboratdir: hokimiyat organlari saylovlari, fuqarolarning boshqaruvdagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtiroki, matbuot va boshqa ommaviy kommunikatsiya vositalari, majlislar, manifestlar, bildirishlar va boshqalar. Jamoatchilik fikrini o‘rganish matbuotda e‘lon qilingan fikrlar va fuqarolar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarning bo‘lishi bilan bir qatorda aholining xohishi, umidlari, kutayotgan istaklari va prinsipial nuqtai nazarlarini

ifodalashning muhim manbaidir. Agar representiv so'rovlarda ko'p sonli fuqarolar ishtirok etsalar, bildirilgan fikrlar umumiy fikrni ifodalab bera oladi. Jamiyatimizda demokratik qadriyatlarni qaror toptirish, fuqarolarimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, dunyoda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, voqea-hodisalar haqida tezkor va haqqoniy ma'lumotlar yetkazish borasida matbuot ahlining fidokorona mehnat qilayotgani barchamizga ma'lum. Bugungi kunda ushbu kasb egalarining sa'y-harakatlari, iste'dod va mahorati bilan mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xalqimiz hayotiga, uning quvonch va tashvishlariga tobora yaqin bo'lib, O'zbekistonning yangi, demokratik qiyofasini shakllantirishda g'oyat muhim rol o'ynamoqda. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining soni qariyb 4 barobar ko'payib, 10000ga yaqinlashgani ushbu tarmoqda o'sish, o'zgarish jarayonlari izchil davom etayotganidan dalolat beradi. Eng muhimi, soha rivojida ana shunday miqdor o'zgarishlari bilan birga sifat o'zgarishlari ham yuz bermoqda. Buning tasdig'ini milliy media maydonimizda fuqarolik jamiyatining muhim sharti bo'lgan nodavlat ommaviy axborot vositalari tarmog'i kengayib, samarali faoliyat ko'rsatayotgani, internet jurnalistikasi jadal rivojlanib borayotgani misolida yaqqol ko'rish mumkin. Keyingi paytda mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari xodimlarining demokratik jarayonlar, fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o'rni va nufuzini, mahalliy gazetalar, tele-radiokanallarning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, eng asosiysi, matbuotda fikrlar, qarashlar xilma-xilligini ta'minlash bo'yicha jiddiy ishlar amalga oshirilgani barchaga yaxshi ma'lum. Bugun biz dunyodagi uzoq-yaqin davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlab, yurtimizdagi demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirishga intilar ekanmiz, boshqa sohalar qatori ommaviy axborot vositalari faoliyati bo'yicha ham hali ko'p ish qilishimiz kerakligini yaxshi tushunmoqdamiz. Ommaviy axborot vositalari so'zda emas, amalda "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilishi zarur. Bu – zamon talabi, islohotlarimiz talabi. Bu borada O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish, uning moddiy-texnik bazasini yaxshilash,



qalam haqi miqdorini oshirish, ijodiy jamoalar bilan yirik kompaniyalar va xo‘jalik birlashmalari, banklar o‘rtasida “do‘stlar klublari”ni tashkil etishga qaratilgan amaliy ishlarimizni ta’kidlash lozim. Ommaviy axborot vositalari uchun zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida yaqinda katta umidlar bilan „O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti”ni tashkil etildi. Ushbu oliy ta’lim maskani sohada erishilgan yutuqlarni har tomonlama o‘rganish, jurnalistika fani, uning ilmiy-nazariy asoslarini, zamonaviy mediateknologiyalarni chuqur o‘zlashtirish, xalqaro standartlar darajasidagi yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkonini beradi. Hech shubhasiz, ommaviy axborot vositalari sohasida amalga oshirilayotgan ana shunday ishlarning barchasi O‘zbekiston jurnalistikasining jahon axborot maydonida munosib o‘rin egallashi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Hozirgi vaqtda hayotimizda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va yangilanish jarayonlarining tub mohiyatini xalqimizga yetkazish, odamlarni yangi marralar sari safarbar etish, oldimizga qo‘ygan vazifalarni sifatli amalga oshirishda ommaviy axborot vositalarining ta’sirchan so‘zi, faol grajdanlik pozitsiyasi suv bilan havodek zarur. Shu bilan birgalikda jurnalistlar faoliyatini ijtimoiy – huquqiy jihatdan himoya qilish borasida ham ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek - “O‘z-o‘zidan ravshanki, mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xodimlarining ish va turmush sharoitlarini yaxshilash, ularning mashaqqatli va mas’uliyatli mehnatini munosib baholash va rag‘batlantirish, soha rivojiga e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish bundan buyon ham biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi”<sup>42</sup>.

Demak, yuqorida ta’kidlaganimizdek ommaviy axborot vositalarning rivojlanishi davlat va xalq o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni bunda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarni keng ommaga yetkazishda, uning mazmunini izohlashda ommaviy axborot vositalarining o‘rni beqiyosdir. Bugungi kunda yurtimizda ommaviy axborot vositalarini har

---

<sup>42</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan bayram tabrigi. Xalq so‘zi. 2018- yil. 26 – iyun.

tomonlarni qo'llab-quvvatlash borasida juda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz ta'бири bilan aytganda "Ommaviy axborot vositalari aholining talab va ehtiyojlarini hokimiyat idoralariga yetkazishning muhim va ta'sirchan vositasiga, xalqning eng yaqin ko'makchisi va hamdardiga, demokratiya ko'zgasiga aylanishi zarur. Hokimiyat va boshqaruv organlari faoliyatiga tanqidiy va xolis baho berish, turli sohalardagi kamchiliklar, dolzarb muammolarni dadil ko'tarib chiqish ular faoliyatida asosiy mezon bo'lishi kerak."<sup>43</sup>

---

<sup>43</sup>Mirziyoyev SH.M. "Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir". Asarlar 2 – jild. –T .; O'zbekiston, 2018. 512 bet

## Xulosa

Insonda ijtimoiy ong shakllangandan boshlab baxtli hayot kechiradigan farovon jamiyatni orzu qilib va bunday jamiyat qurishni davlat va hokimiyat bilan bog'lab kelmoqda, chunki jamiyat taraqqiyotini muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartibni o'rnatilishi, eng avvalo davlatga, aniqroq aytganda davlat nazoratiga bog'liq bo'lgan. Ijtimoiy boshqaruv va tartib shuning uchun jamiyat taraqqiyotining muhim shartiki, ijtimoiy boshqaruv va tartib o'rnatilmagan jamiyatda ziddiyatlar va qarama- qarshiliklar keskinlashib son-sanoqsiz urushlar kelib chiqadi va oxir oqibatda insoniyat jamiyati halok bo'lishi mumkin. Chunki, insoniyat jamiyati xilma-xil ehtiyojli va manfaatli odamlar majmuidan iborat. Ular o'rtasidagi munosabat murosaga solinib kelishtirilib tartibga olinmasa, odamlar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib yuqorida ta'kidlagan keskin holat kelib chiqishi mumkin. Bunday ayanchli holat ro'y bermasligi uchun insoniyat jamiyatida odamlar o'rtasidagi munosabat huquq va axloq normalari orqali tartibga olinishi kerak. Buning uchun huquq va axloq normalariga rioya qilish nazorat qilinishi lozim, chunki, ijtimoiy regulyatorlar odamlarni to'g'ri yo'ldan yurishga undaydi. Jamiyat taraqqiyotinin muhim sharti bo'lgan ijtimoiy tartib o'rnatilishi uchun ijtimoiy regulyator bo'lgan huquq va axloq normalariga rioya qilish ta'minlangan bo'lishi lozim. Buning uchun huquq va axloq normalariga rioya qilish nazorat qilinishi kerak bo'ladi. Ana shunday nazoratni davlat o'zini integratsion vaboshqaruvchilik funksiyalari orqali amalga oshrib kelmoqda. Lekin, hozirgi kunga kelib tarix shundan guvohlik bermoqdaki, adolatli ijtimoiy tartibni barqarorligini ta'minlash uchun faqat davlat nazorati etarli emas ekan. Buning uchun jamiyat nazorati ham ya'ni fuqarolik jamiyati institutlari nazorati ham talab qilinmoqda. Boshqacha qilib aytganda nazorat faqat yuqoridan emas, balkim quyidan ham amalga oshirilishi kerak bo'lmoqda. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda – “Kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda jamoatchilik nazoratini tizimli yo'lga qo'yish eng maqbul yo'ldir. Bu – jahon tajribasida sinovdan o'tgan

yo‘l.Davlat qachon o‘z vazifasini muvaffaqiyatli ado etadi? Qachonki davlat idoralari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazorati o‘rnatilgan bo‘lsa”<sup>44</sup>

Agar nazorat faqat yuqoridan amalga oshirilsa, huquq va axloq normalariga rioya qilishni to‘liq ta‘minlash gumon bo‘lib qoladi. Chunki, huquq va axloq normalarini buzgan odam yuqoridan nazorat qiluvchini qarindoshi yoki tanish-bilishi bo‘lsa, jazodan qutulib qolishi mumkin. Oqibatda qonun ustivorligi va jazoni muqarrarligi tamoyili ta‘minlanmay qoladi. Bunday jamiyatda oxir - oqibatda ijtimoiy tartibga putur etadi, siyosiy parokandalik kelib chiqadi va bu jamiyat inqirozga yuz tuta boshlaydi, natijada, ertami – kechmi bu mamlakat o‘z mustaqilligini yo‘qotishi mumkin. Bunday ayanchli holat yuz bermasligi uchun jamiyatda ijtimoiy tartibni o‘rnatishga qodir bo‘lgan nazorat tizimini samarali ishlashini ta‘minlaydigan mexanizm shakllangan bo‘lishi lozim.O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabrda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi — “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusidagi ma‘ruzasi milliy qonunchilik, shu jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatiga oid qonunchilik tizimini yanada takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish talablariga moslashtirish borasida muhim qadam bo‘ldi. Ushbu konsepsiya davlatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish barobarida milliy qonunchiligimizni shu yo‘nalishda isloh etish uchun muhim zamin hozirlaydi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov aytganidek, — “Fuqarolik institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi kunda demokratik qadriyatlar, inson huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning o‘z salohiyatlarini ro‘yobga chiqarishi, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratmoqda, jamiyatda manfaatlar

---

<sup>44</sup>Mirziyoyev SH.M. “Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”.Asarlar 2 – jild. –T .; O‘zbekiston, 2018. 512 bet

muvozanatini ta'minlashga ko'maklashmoqda"<sup>45</sup>. Bitiruv malakaviy ishimizda tahlil etilgan muamolar va ularning yechimi bo'yicha quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. Fuqarolik jamiyati – bu yuksak fazilatlarga ega bo'lgan insonlar jamiyatidir. Fuqarolik jamiyati – bu shunday ijtimoiy tuzumki, unda qonun ustuvorligi ta'minlanadi, inson huquqlari va erkinliklari qaror topadi, siyosiy partiyalar va institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta'minlanadi, insonga uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlash kafolatlanadi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqei yuksak bo'ladi. Mamlakatning har bir fuqarosi fuqarolik institutlari faoliyatlarida keng ishtirok etadi va ular orqali siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy jihatdan o'z ehtiyojlarini qondiradi. Fuqarolik jamiyatida davlat va uning organlari faoliyati ustidan fuqarolarning *jamoatchilik nazorati* o'rnatiladi. Davlatning bir qator vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi. Aytish mumkinki, fuqarolik jamiyatini qurish kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari bosqichma-bosqich o'tish orqali ro'y beradi. Mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida —"Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" dasturi asosida davlatning ayrim vakolatlarini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich topshirish jarayoni kechmoqda.

2. Jamoat tashkilotlari jamiyatda mavjud bo'lgan barcha manfaatlarni qamrab olib, ularni ifodalagandagina, ular o'z maqsadlarini samarali bajaradilar. Jamiyatda turlicha, jumladan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, milliy, mafkuraviy, madaniy, ekologik, hududiy, mintaqaviy, diniy, shuningdek, yana o'nlab alohida sohalarga doir manfaatlar mavjuddir. Manfaatlar guruhlari ana shu manfaatlarning ifodachisi sifatida paydo bo'ladi va faoliyat yuritadi. Manfaatlarning guruhlar vositasida ifoda etilishi siyosiy qarorlar qabul qilish uchun yordam berishidan tashqari, ular davlat va hukumat organlari ehtiyoj sezayotgan axborotlar va boshqa ma'lumotlarni yetkazib berib turishi mumkin.

---

<sup>45</sup>Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi". – Toshkent: —O'zbekistonl, 2010. – B.42.

3. O'zbekistonda siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, veteranlar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy, fizkultura-sport va boshqa ko'ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e'tirof etiladi.

4. Fuqarolik jamiyati institutlarining tashkil etilishi va faoliyat yuritishining huquqiy asoslarining o'zagi sifatida dastavval O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tilga olish o'rinlidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIII bobi jamoat birlashmalari faoliyatining konstitutsiyaviy asoslariga bag'ishlangan. Mazkur bobda jamoat tashkilotlarining turlari, faoliyat ko'rsatish tartibi, ularning davlat hokimiyati organlari va mansabdor shaxslariga nisbatan mustaqil ekanligi kabi prinsiplar mustahkamlab qo'yilgan. Xususan, Konstitutsiyaning 56-moddasida belgilanganidek, —"O'zbekiston Respublikasida qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar, faxriylar va yoshlar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar va fuqarolarning boshqa uyushmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi".

5. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida xizmat qilayotgan qonunlardan quyidagilarni kiritish mumkin:

- "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida"gi qonun,
- "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni
- "Fuqarolarning o'zini o'ziboshqarish organlari to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri).
- "Nodavlat notijor tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni
- "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun,
- "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun,
- "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonun,
- "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi qonun,

- “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi qonun,
- “Ommaviy axborot vositalari to’g’risida”gi qonun,
- “Homiylilik to’g’risida”gi qonun,

Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 – fevral 2017 – yilda “2017 -2021 yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomalari, “Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili “da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to’g’risida”gi Prezident farmoni “O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlari rivojlanishiga ko‘maklashish chora-tadbirlari to’g’risida” gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada ta’komillashtirish chora – tadbirlari to’g’risida”gi 4944-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati Kengashlarining — “Nodavlat notijorat tashkilotlarini, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qo‘shma qarori,

6. Fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy instituti hisoblanadigan jamoat tashkilotlarining birlamchi va asosiy funksiyasi, ularning davlat hokimiyatini muayyan darajada chegaralash, ya’ni davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ekanligini e’tirof etish joiz. Aytish mumkinki, jamoat tashkilotlarining roli aynan demokratik jarayonlarning rivojlanish davrida uni qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlashda ko‘rinadi.

7. Mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlar tizimi ancha tez shakllantirilmoqda, ularning soni va sifati ortmoqda, turlari va ixtisoslashishlari kengaymoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari rivojlangan demokratik davlatlarda jamiyat hayotining barcha sohalarini ta’minlashda davlat organlari va tijorat tuzilmalarining sherigi deb ataluvchi o‘rnini yanada dadil egallamoqdalar. O‘z mahallalarida kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlashdan tortib ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi yirik

miqyosli davlat va xalqaro loyihalarda ishtirok etishgacha, manfaatlari bo'yicha birlashish, jamiyatda muayyan ijtimoiy va kasbiy qatlamlarning qonuniy huquqlarini himoya qilishdan mamlakatimizning ochiqligi, umumjahon insoniy demokratik tamoyillarni qaror toptirish maqsadida nodavlat darajada xalqaro aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlashgacha bo'lgan juda keng sohalar – bularning hammasi nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyat sohasidir.

8. Nodavlat notijorat tashkiloti atamasi ko'plab tushunchalar ifodalansa-da, hozirda “uchinchi sector” atamasi keng qo'llanilayotganligini qayd qilish lozim. Barcha bu turdagi tashkilotlar uchun tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy nuqtai nazardan umumiy xususiyatlar mavjudligini ta'kidlaydi: birinchidan, tashkiliy jihatdan mustahkam tizimga ega bo'lishlik; ikkinchidan, davlatdan ajratilganlik; uchinchidan, o'zining muassislari yoki rahbarlari orasida foydani taqsimlamaslik; to'rtinchidan, o'z-o'zini mustaqil boshqarish; beshinchidan, ixtiyoriylik.

9. Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini huquqiy tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganib chiqildi. SHuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik tizimini quyidagicha tasniflash mumkin: 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan normalar; 2) O'zbekiston Respublikasi kodekslarida belgilangan normalar; 3) O'zbekiston Respublikasining qonunlari: a) universal tipdagi qonunlar; b) maxsus tipdagi qonunlar; 4) qonun osti hujjatlari; 5) xalqaro hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2017 – 2021 yillarga mo'ljallangan “Harakatlar strategiyasi”ning birinchi bo'lim 3- bandining jamoatchilik boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgani ham ushbu sohadagi ishlarga bugungi kunda qanchalik e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. Harakatlar strategiyasi belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi esa o'z navbatida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning uzviy davomi bo'lib hisoblanadi.



## **Foydalanilgan adabiyotlar.**

### **I. Normativ – huquqiy hujjatlar.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.- T.; O'zbekiston, 2018 – yil.80 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 24.05.2019 y.,03/19/542/3177-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi.Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.03.05.2019 y., 03/19/534/3046-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7 – fevral 2017 – yilda “2017 -2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati. 2017 – yil. 7 –fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati. 2017-yil 22 dekabr.
6. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risidagi Prezident farmoyishi.T.,2016-yil 17-dekabr,F-4760-son. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 8-son, 119-modda)
7. ”Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida”gi Prezident Farmoni. T.,2018 yil 22 yanvar,PF-5308-son.(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.01.2018 y., 06/18/5308/0610-son.
8. “Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili “da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida”gi Prezident Farmoni.T., Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 18.01.2019 y., 06/19/5635/2502-son,
9. O'zbekiston Respublikasining qonuni “O'zbekiston Respublikasida Jamoat birlashmalari to'g'risida”. 15.02.1991 y.n 223-XII. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son)

- 10.O‘zbekiston Respublikasining Qonuni “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida” .  
Xalqso‘zi. 13 Aprel 2018
- 11.O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”. T., 1996  
yil 26 dekabr, 337-I-son. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining  
Axborotnomasi, 1997 y., 2-son,
- 12.O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish  
organlari to‘g‘risida”(yangi tahriri).T.,1999-yil 14-aprel,758-i-son.  
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1999-y., 5-son,)
- 13.O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Nodavlat notijorat tashkilotlari  
to‘g‘risida”.T.,1999-yil 14-aprel,763-i-son. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy  
Majlisining axborotnomasi, 1999-y., 5-son)
- 14.O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Nodavlat notijorat tashkilotlari  
faoliyatining kafolatlari to‘g‘risida”.T.,2007yil 3 yanvar. O‘RQ -76-son  
(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007 y., 1-2-son,)
- 15.O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish  
organlari to‘g‘risida” (yangi tahriri).T., 2013 yil 22 -aprel,O‘RQ—350-son  
(O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 17-son,
- 16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada  
takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi 4944-sonli Farmoni.3 fevral  
2017 yil

## **II. Asosiy adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan  
birga quramiz”. – T. O‘zbekiston, 2017. 488 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,  
yangi bosqichga ko‘taramiz”.1-jild. – T.,O‘zbekiston. 2017. 592 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy  
bahodir”. Asarlar2 – jild. –T.;O‘zbekiston, 2018. 512 bet.

4. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.,O’zbekiston NMIU. 2017 – yil. 48 bet
5. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – T.,O’zbekiston. 2016- yil. 56 bet.
6. Karimov I.A. “O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida”.- T.,O’zbekiston NMIU1995 yil. 105 bet
7. Karimov I. A. “O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat,mafkura”.– T.,O’zbekiston NMIU.1996 yil.204 bet.
8. Karimov I.A. “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xafsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. - T., O’zbekiston, 1998, 180bet.
9. Karimov. I.A. “O`zbekiston buyuk kelajak sari”. T., “O`zbekiston”, 1998. 688 bet
- 10.Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”.–T., “Ma’naviyat”, 2008.206 bet
- 11.Karimov I.A.”O’zbekistonda demokratik o’zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo’nalishlari”. T., O’zbekiston. 2002 yil. 88 bet.
- 12.Karimov I.A. “Biz tanlagan yo‘l demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li”. T.II. –T.: O‘zbekiston, 2003. 324 bet.
- 13.Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. – T.: O’zbekiston, - 2010.42 bet.
- 14.O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni” bilan bayram tabrigi. Xalq so’zi. 2018- yil. 26 – iyun.
- 15.Qirg’izboyev M. “O’zini-o’zi boshqarish organlari – fuqarolik jamiyatining asosi. Demokratlashtirish va inson huquqlari”, 2003, №1;
- 16.G’ulomov M. “Mahalla – fuqarolik jamiyatining asosi”. – T.: «Adolat», 2003;
- 17.Raxmonov R., Abdullayev N.” Mahalla: o’z o’zini boshqarishning huquqiy kafolati”. – T.: Mehnat, 1999. –72 b;

18. Jalilov Sh. “Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari: Tajriba, tahlil, amaliyot.” - T..O’zbekiston 2001;

### **III. Qo’shimcha adabiyotlar**

1. Axmedov D., G’ofurov Z. “Mahalla noyob milliy qadriyat”. – T.: O’zbekiston, 2005. - 112 b
2. Nabiyev F.X..” Ijtimoiy nazorat”. O’quv qo’llanma. 2013- yil
3. Saidov A. “Davlat va huquq nazariyasi”. Oliy ta’lim muassasalari uchun darslik. 2016-yil
4. Даймонд Л. Прошла ли “Третья волна демокризации?” // Полис. 1999. г
5. Дал Р. О. “Демократии”. –М.: Аспект пресс, 2000 г
6. Гегел Г.В. “Философия права”. -М.: Мысл, 1990. s.418.
7. Анхайер Хелмут. “Гражданское общество и “третий сектор”. “Deutschland” jurnali, 2000, N5
8. BoysunovJ. “Pedagogik mahorat”.Ilmiy–nazariy va metodologik jurnal. 2018-yil. 2-son

### **IV. Internet manbalari.**

1. <http://www.Lex.uz/>
2. <http://www.arxiv. Uz/>
3. <http://www.aim.uz/>
4. <http://wwwedu.uz/>
5. <http://www.uzreport.uz/>
6. <http://www.gazeta.uz/>
7. <http://www.president.uz/>